

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 371.302.3

ZIYOTOVA ORASTA MURODILLAYEVNA

**Boshlang‘ich ta’lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishni
takomillashtirish yo‘llari**

5A111701- «Boshlang‘ich ta’lim»

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots.Rasulov T.Q.

QARSHI- 2013

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida didaktik materillarni yaratishning nazariy pedagogik asoslari	9
I.1. Didaktik materiallar yaratish tarixi.	9
I.2. Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun didaktik materiallar yaratish va takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	28
I bob bo‘yicha xulosa	35
II bob. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirish mazmuni	36
II.1. Boshlang‘ich ta‘limda jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallarni yaratish tamoyillari	36
II.2. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirish yo‘llari va usullar.	42
II bob bo‘yicha xulosa	46
III bob. Boshlang‘ich ta‘limda didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari	48
III.1. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallarga quyiladigan talablar	48
III.2. Didaktik materiallarni takomillashtirish metodikasi asosida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlili va tavsiyalar	57
III bob bo‘yicha xulosa	62
Xulosalar	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	68
Ilovalar	74

KIRISH

Jahon hamjamiyati mamlakatlari orasida o'zining mustahkam o'rni va mavqeiga ega bo'lib borayotgan O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti ko'p jihatdan yosh avlodni yuksak ma'naviyat va intellektual salohiyat egasi etib tarbiyalashga bog'liq. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlari, shu jumladan, ta'lim sohasini isloh qilish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, malakali kadrlarni tayyorlash borasida o'ziga xos samarali modelni mujassamlashtirgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi yangi tahrirdagi o'quv dasturlari, modernizastiya qilingan DTS, darsliklarning yangi avlodini yaratish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Mavzuning dolzarbligi. Ta'lim sohasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan amaliy harakatlar sirasida o'quv darsliklarining yangi avlodini yaratish yo'lida olib borilayotgan faoliyatni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirib borish etakchi o'rin tutadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktab o'quvchilarini zamonaviy darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi Farmoyishi (№ 213-F. 13.05.1998), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi (№4. 05.01.1998), "Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi (№390. 16.08.1999), "O'zbekiston Respublikasida yangi o'quv dasturlari, darsliklari va o'quv qo'llanmalarini yaratishning Muvofiqlashtirish komissiyasini tuzish haqida"gi (№208. 29.05.2000) Qarorlari so'z yuritilayotgan yo'nalishda amaliy harakatlarni muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

Respublika Prezidenti I. Karimov ta'lim muammolari xususida so'z yuritarkan, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri – barcha bosqichda faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalarini sifatli o'quv adabiyotlari, shu jumladan, darsliklar bilan ta'minlashga erishish ekanligini ta'kidlagan. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish ko'p jihatdan o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim mazmunini belgilash, ularni o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlashga bog'liq.

Ma'lumki, darsliklar ta'lim jarayonining samaradorligini kafolatlovchi manba va vositalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur yondashuv ta'limning globallashuv sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Aksincha, ijtimoiy talablarga muvofiq yaratilgan sifatli darsliklarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konstepstiyasi muvofiq **"darslik-** bu davlat ta'lim

standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarin mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr" [47, 8] sanaladi. Umumiy o'rta ta'lim mazmunini, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari bo'yicha darslik va qo'llanmalarning mazmunini tubdan yangilashni davr taqozo etmoqda. Ayniqsa, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning ikkinchi bosqichida ko'zda tutilgan ta'lim jarayonini "yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va darsliklar bilan ta'minlash" masalasi boshlang'ich ta'lim turkumiga kiradigan darsliklarning ham mazmun va tarkibiy tuzilishi jihatdan tahlil qilish, takomillashtirish, pedagogik texnologiyalar asosida loyihalashni talab etadi.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darsliklarning yangi avlodi yaratildi va amaliyotga joriy etildi. Ma'lumki, yaratilgan darsliklarda o'quv materiallari loyihalash sifatini takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim uchun darsliklarni yaratishda: uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konstepstiyasiga muvofiqligi; davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga muvofiqligi; darslik o'quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilishi; mantiqiy va tarkibiy tuzilmasiga ko'ra didaktik talablarga muvofiq kelishi; ijtimoiy g'oya, nazariya va amaliyot birligi, turdosh fanlar va ishlab chiqarish bilan integrastiyalashuv, shuningdek, zamonaviy ilm, fan, texnika va texnologiya yutuqlarini aks ettira olishi hamda ulardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishi kabi mezonlarga tayaniladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, o'z navbatida, boshlang'ich ta'lim darsliklari o'quv materiallarini tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga oid ilmiy-metodik jikattan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim darsliklarida o'quv materiallari o'quvchilarning me'yoriy asoslangan darajada mujassamlashgan bilimlarni mustahkamlash, tizimga solish, ko'nikma va malaka hosil qilishlarida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini ta'minlash, shuningdek, yosh avlodning milliy g'oyani angelaydigan barkamol shaxs sifatida shakllanishi ko'p jihatdan yaratiladigan darsliklar saviyasiga bog'liq. Zero, darsliklarda beriladigan o'quv materiallari vositasida o'quvchilarning ongi, ilmiy dunyoqarashi, shaxsiy sifatlari, mustaqil fikrlash faoliyati, ijodiy tafakkuri, faraz qilish qobiliyati, milliy ruhi shakllanadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim darsliklarida o'quvchilar mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga oid o'quv materiallarining shakl va mazmunini belgilash, bolaning aqlini charxlashga oid usullar va

metodlar bilan o'quv-metodik majmualar mazmunini boyitish kabi vazifalar o'z echimini kutmoqda. Ushbu

vazifalarning ijobiy echimini ta'minlash uchun, albatta, darsliklar o'quv materiallarini loyihalashda tarixiy tajriba hamda pedagogika fanining eng so'nggi yutuqlariga tayanish zarur.

Muammoning ishlanganlik darajasi.

Umumiy o'rta ta'lim tizim, jumladan boshlang'ich ta'lim uchun darsliklar tayyorlash va ularni takomillashtirish muammosi qator ilmiy tadqiqotlar ob'ekti bo'lib kelgan. Xususan:

- darsliklar yaratish metodologiyasi, darslik mazmunining tuzilishi, darsliklarning didaktik vazifalari, o'quv materiallarining mazmuni, o'quv materiallarini loyihalashning o'ziga xos jihatlari M.N.Skatkin[24], V.V.Kraevskiy [29], K.Sosnistkiy [43];

- umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarini tekshirish va baholash mezonlari, maktab darsliklarining yangi avlodiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish borasida D.Shodiev, R.Safarova va M.Rixsievalar [55] tomonidan amaliy harakatlar olib borilgan bo'lsa, ta'limni didaktik loyihalash tamoyillari, o'quv materiali va uning turli shakllarini loyihalash muammosi M.Maxmudov [33];

- o'quv materiallarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida loyihalashning mohiyati, yo'llari va o'quv jarayoniga tadbiq etishning umumiy xususiyatlari borasida V.P.Bespalko [21], N.S.Sayidahmedov [39], O'.Q.Tolipov [45] lar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflar tomonidan o'quv materiallarini loyihalashning umumiy jihatlari borasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan qarashlar ilgari surilgan bo'lsa-da, ayni vaqtga

qadar boshlang'ich ta'lim uchun didaktik materiallarni yaratish va takomillashtirish muammosi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirish yo'llari va usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti boshlang'ich sinflarda didaktik materiallardan foydalanish jarayoni.

Tadqiqot predmeti boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirish yo'llari.

Tadqiqotimizning metodologik asosini boshlang'ich ta'lim mazmunni takomillashtirishga doir qabul qilingan mehyoriy hujjatlar, Prezidentimiz I.Karimovning ta'limni rivojlantirishga doir qarashlari, darsliklar va boshqa o'quv materiallari tayyorlashga doir nazariyalar.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirishga harakat qildik:

1. Markaziy Osiyoda darsliklar yaratish tarixini tadqiq etish.

2. Mustaqillik yillarida didaktik materiallar yaratish borasida erishilgan yutuqlarni tahlil qilish.

3. Boshlang'ich sinflarda foydalanilgan didaktik materiallar turlarini o'rganish.

4. Boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish.

5. Didaktik materiallarni takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot farazini quyidagicha belgiladik: boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish mumkin, agarda,

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan didaktik materiallarning ta'limiy ahamiyati, mohiyatini to'g'ri anglab etilsa;
- o'quv materiallaridan foydalanishda ularni tanlash mezonlariga amal qilinsa;
- didaktik materiallarni tanlashda o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini o'stirish imkoniyatlari inobatga olinsa;
- didaktik materiallardan foydalanish uzluksiz takomillashtirib borilsa.

Tadqiqot davomida suhbat, qiyosiy tahlil, anketa so'rovlari, test, pedagogic eksperiment kabi **ilmiy tadqiqot metodlaridan** foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining rang-barang didaktik materiallar tayyorlash va ulardan muntazam foydalanib borish ko'nikma va malakalarini oshiradi. Olingan empirik ma'lumotlar va izlanishlarda ilgari surilgan g'oyalar, nazariy mushohadalar, ilmiy tahlillar va xulosalar boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tajribalar natijasida ishlab chiqilgan xulosalar va tavsiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ilmiy uslubiy tavsiya sifatida taqdim etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi izlanishlar davomida ta'lim mazmunini takomillashtirish hamda o'quvchilar tafakkurini o'stirishga xizmat qiladigan didaktik materiallar tizimi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyamiz kirish, ikki bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar royxati va ilovalardan iborat.

I BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIK MATERILLARNI YARATISHNING NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI

I.1. Didaktik materiallar yaratish tarixi

Xalqimiz madaniyatining rivojlanish tarixida pedagogik fikrlar taraqqiyoti, jumladan o'quv vositalarining mazmunan va shaklan takomillashuvi muhim ahamiyat kasb etib, usiz ta'lim-tarbiya sohasidagi madaniy-ma'rifiy rivojlanishni aniq tasavvur qilib bo'lmaydi.

«Darslik - DTS, o'quv dasturlari, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g'oyalari sindirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan davlat nashridir.

Har bir ta'lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan o'z darsliklari bo'ladi. Odatda, darslik o'quv fanining nomi bilan yuritiladi. Darslikda nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi» [44; 16].

Darsliklar yuqorida aytilganidek, yuksak saviyada yozilgan ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy-uslubiy, muayyan fan doirasida, u fanning qonun va nazariyalarini o'zida umumlashtirgan o'quv kitobidir. Shu nuqtai nazardan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida foydalaniladigan darsliklar o'quvchining umumiy kamolotida alohida o'rin egallaydi. Darsliklar ko'p yillik pedagogik, psixologik izlanishlar, ilg'or tajribalar hamda jahon standarti namunalari asosida tuzilgan bo'lishi lozim. Xususan, boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan darsliklarning tili sodda, ravon va tushunarli, o'quvchi yoshi hamda psixologik xususiyatiga mos bo'lishi, ularning nutqi va dunyoqarashining o'sishiga yordam berishi kerak. Darsliklardagi har bir mavzu o'zidan oldingi mavzuni to'ldirib, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishi zarur. U o'quvchilarga odob-axloqni o'rgatishga xizmat qilishi, ularda ona-Vatanga mehr-muhabbat, kishilarga g'amxo'rlik, mehribonlik, iltifotlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, vijdonlilik kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi.

Darslikning yana bir muhim tomoni shundaki, u o'quvchilarga muayyan darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf darsliklaridagi har bir she'r, masal, ertak, hikoyalar qiziqarli bo'lib, bir maqsadga, ya'ni, jamiyatda barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Shu bilan bir qatorda, ular o'quvchi-yoshlarda ruhan tetiklik, aqlan komillik, axloqan poklikni ta'minlashi lozim.

Ta'limning muhim o'quv vositasi sifatida darsliklarning ahamiyati beqiyosdir. Uning rivojlanish tarixini o'rganish, eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda darsliklarning dastlabki nusxalari yaratila boshlanganligini ko'rsatadi. Arxeologik qazilmalar natijasida, Sharqda, xususan Furot va Dajla daryolari oralig'ida yashagan qadimgi xalqlar sopol taxtachalarga bitgan

matn qoldiqlari topilgan. Shu topilmalar qadimda «qo‘llanma» va «darslik» vazifasini o‘tagan. Keyinchalik boshqa Sharq xalqlarida papirus yoki pergamentlarga bitilgan qo‘lyozma o‘quv kitoblari vujudga kela boshlagan. Ular ma’lum bir soha, kasbga o‘rgatish uchun asosiy manba vazifasini o‘tagan [62; 209].

Darhaqiqat, qadimda darsliklar kitob shaklida tartib qilinmay, ular hayvon terilari va daraxt po‘stloqlariga odamlar tomonidan yasalgan “qo‘lbola” yozuv qurollarida yozilgan.

Tarixiy adabiyotlarda aytilishicha, arifmetik masalalar to‘plamidan iborat **birinchi darslik** armanistonlik olim **David Yengilmas** tomonidan milodiy VI asrda yaratilgan. Ushbu noyob asarning bir nusxasi Yerevan shahridagi matenadaran (qadimgi qo‘lyozmalar to‘plangan ulkan arxiv)da saqlanmoqda. Shuni inobatga olish kerakki, pedagogika va psixologiya fanlarining taraqqiyoti natijasida darsliklarning shakli, mazmuni va tarkibiy tuzilishi asta-sekin rivojlanib, takomillashib bordi. VII asrga qadar asosan yuqori tabaqa kishilarining farzandlarigagina ta’lim-tarbiya berilgan. Ularning asosiy mashg‘ulotlari qurol-yaroqlardan foydalanish, ot choptirish, kamon otish kabi hunarlarni o‘rganishdan iborat bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda, tarbiyalanuvchilarga axloqiy-estetik bilimlar berilgan. Ularda kiyinish, yurish-turish, jamoa joyida o‘zini tutish kabi odob me’yorlari singdirilgan.

VII asrda, arablar O‘rta Osiyoni bosib olgandan keyin, dini, yozuvi, urf-odati, milliy an’analarini targ‘ib va tashviq qila boshladi. O‘rta Osiyo xalqlari islom dini va arab yozuvini qabul qildi, ushbu yozuvda xat bitish hamda ijod qilish keng tarqaldi. Shu munosabat bilan maktabxona va madrasalarda asosan Qur’oni Karim vositasida ta’lim-tarbiya berildi.

O‘rta Osiyoda VII asrdan XX asr boshlarigacha yaratilgan tarixiy-ilmiy, adabiy-badiiy manbalarning hammasi arab yozuvida bitildi. O‘rta Osiyo hududida yashab, ijod qilgan mutafakkirlarning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, Muhammad Muso Al-Xorazmiy (783-850) «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala» kitobi bilan algebra fanining yaratilishi, rivojlanishiga asos soldi. Risolaning nomidagi «al-jabr» va «al-muqobala» so‘zlari «to‘ldirish» va «ro‘para qo‘yish» ma’nosini anglatib, o‘rta asr algebrasining 2 ta asosiy amalini anglatadi, «al-jabr» so‘zi lotincha «algebra» bo‘lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomidir.

Algebraik risola 3 qismdan: 1) algebraik qism, buning oxirida kichik bir bo‘lim - savdo muomalasidan bob keltiriladi; 2) geometrik qism, o‘lchash haqida; 3) vasiyatlar haqidagi qism. Xorazmiy uni alohida nom bilan «Vasiyatlar kitobi» deb atagan. U risolada hech qanday belgi qo‘llamay, uning asosiy matn qismi so‘zlar yordamida bayon etilgan, ammo o‘rinlarda geometrik shakllar keltirilgan. Ushbu risoladan o‘z davrida darslik sifatida foydalanilgan [53].

Muhammad ibn Muso Xorazmiyning astranomiya o'ld «Kitob surat al-arz» («Erning surati») nomli ilmiy asari mavjud bo'lib, ushbu asardan ham maktabxona va madrasalarda darslik sifatida qo'llanilgan. Uning yana bir yirik astronomiya masalalari yoritilgan asari - «Zij» (830- yillarda yozilgan) 37 bob, 116 jadvalni qamrab olib, sayyoralar haqida ma'lumotlar, jug'rofiy hududlar uzunligi va kengliklarini o'lchash qoidalari, quyosh va oy tutilishi masalalarini yoritishga qaratilgan. Bulardan tashqari, kitobda shahar, tog', dengiz, orol va daryolar misolida 2402 ta jug'rofiy o'rinlarning koordinatlari keltirilgan [53].

Buyuk astronom, matematik va geograf olim Ahmad al-Farg'oni (taxm.797-865)ning «Kitob al-harakat as-samoviyya va javomi' ilm an-nujum» («Samoviy harakatlar va umumiy nujum ilmi kitobi») deb nomlanib, uzoq yillar davomida Evropada darslik vazifasini o'tagan. Undan tashqari al-Farg'oniya astronomiya o'ld 7 ta asari mavjud bo'lib, ularning hammasi madrasalarda darslik sifatida qo'llanilgan. «Asturlab yasash haqida kitob», «Al-Farg'oni jadvallari», «Oyning Er ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola», «Etti iqlimni hisoblash haqida» kabi ilmiy asarlari shular jumlasidandir [53].

Abu Nasr Forobiy (873-950)ning 100 ga yaqin ilmiy-falsafiy va pedagogik asarlari mavjud. Uning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» asarida batafsil yoritilgan. Unda o'rta asrda ma'lum bo'lgan 30 dan ortiq fanning ta'rifi va ahamiyati yoritilgan. Ushbu asarda Forobiy barcha fanlarni 5 guruhga ajratib, ayni vaqtda ularning ichki bo'linishlarini ham tasniflaydi: 1)til haqidagi ilm (grammatika, yozuv qoidalari, she'riyat); 2) mantiq va uning qismlari; 3) matematika (arifmetika, geometriya, optika, astronomiya, muzika, og'irlik haqidagi ilm, mexanika); 4) tabiatshunoslik va metafizika (bashorat qilish, tibbiyot, alkimyo); 5) shahar haqidagi fanlar-siyosiy ilm, fiqh, kalom (etika, pedagogika) [53].

Yuqoridagilarga asoslanib ta'kidlash joizki, Forobiy o'z asarlarida bilimlarni integrastiyalash yo'lidan borgan hamda, o'z navbatida, bunday integrastiya ta'lim oluvchilarga qulaylik tug'dirishini anglab etgan. Abu Nasr Forobiyning «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola», «Fozil shahar aholisining maslagi», «Aql ma'nolari haqida» kabi ilmiy-pedagogik asarlari orqali ta'lim-tarbiya muammolarini yoritishga harakat qilgan hamda O'rta Osiyo xalqlari madaniyati, pedagogikasi, darsliklar yaratish tajribasiga ulkan hissa qo'shgan. Forobiy arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqani tarbiyaviy fanlar turkumiga kiritadi. Qayd etilgan fanlarning tarbiyaviy ahamiyatini uqtirib: «Bu to'rt fan tarbiyaviy fan deb ataladi, chunki ular tufayli o'quvchilar tarbiyalanadi, ular o'quvchilarni yanada nazokatliroq qiladi va o'quvchilarning shundan keyin keladigan bilimlarni o'rganishi va o'qib olishi uchun to'g'ri yo'l ko'rsatadi» deya ta'kidlaydi. Allomaning fikricha, tabiat haqidagi fan «... har qanday tarbiyaviy

fandan ko‘ra boyroq va kengroq hajmga egadir». Farobiy fanlarning ahamiyatini o‘zaro qiyoslab: «men fanlar ichida eng birinchi fan - til haqidagi fandır... ikkinchi fan-grammatika... uchinchi fan-mantiq, to‘rtinchi fan poetikadir deb tasdiqlayman», - deya uqtirgan edi [53]. Demak, Farobiy fanlarning ta‘lim tizimida tutgan o‘rni va nufuzi, ularning shaxsni rivojlantirishdagi ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratgan. U yaratgan asarlar uzoq asrlar davomida ta‘lim muassasalarida darslik vazifasini o‘tab kelgan. Ularning aksariyati noyob didaktik manba sifatida katta pedagogik qimmatga ega. Ibn Sinoning (980-1037) «Kitob al-qonun fit-tibb», «Kitob un-najot», «Kitob ul-insof» asarlari geometriya, astronomiya, o‘simlik, hayvonot olami va mantiqqa oid ilmiy asarlardir. Uning «Kitob ush-shifo» asari 22 jildidan iborat bo‘lib, mantiq, fizika, matematika, metofizikaga doir masalalarni o‘z ichiga olgan (Xayrullaev M. Buyuk siymolar, allomalar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti, 1995.(1-kitob).). Asardan madrasa va maktabxonalarda tabiiy-matematik fanlarni o‘qitishda foydalanilgan. Abu Rayhon Beruniyning «Tahdid nihoyot al-amoniya li tashidi masofat al-masokin» (“Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash” - «Geodeziya») (1075-1144) asarida astronomiya va jug‘orfiya masalalari yoritilib, unda osmon jismlari hamda joylarning geografik jihatlari haqida tahliliy materiallar berilgan. Shuningdek, allomaning «Mas‘ud qonuni» nomli ilmiy asarida esa matematika va astronomiya fanlariga oid ayrim masalalar o‘z aksini topgan. Madrasalarda buyuk mutafakkirning qayd etilgan asarlaridan darslik sifatida foydalanilgan.

Yusuf xos Hojib o‘zining «Qutag‘u bilig» asarida, savodli bo‘lishning har tomonlama afzalligini uqtirib, yoshlarning aqliy, jismoniy va axloqiy tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarni ilgari surib, ularni mehr-oqibatli, halol va bilimdon bo‘lishga da‘vat etadi. Jumladan, u bilim olishning foydasini ta‘kidlab: «uquv- idrok qorong‘u tundagi mash‘alga o‘xshaydi. Bilim esa o‘sha mash‘aldan taralayotgan nurga qiyos. U kishini yoritadi, unga ro‘shnolik beradi», deya uqtiradi [53].

Az-Zamaxshariy(1075-1144)ning «Al-Mufasssal» (“Arab grammatikasiga oid”, 1121), «Muqaddamat ul-adab» (1137) kabi asarlari so‘z turkumlaridan ot va fe‘llar hamda bog‘lovchilarning mazmuni va mohiyatini izohlashga qaratilgan bo‘lib, ular madrasalarda til ilmini o‘qitishda qo‘llanilgan. Uning «Kitob al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh» (“Tog‘lar, joylar, va suvlar haqida kitob”) risolasi geografiya, «Asos al-balog‘a» (“Notiqlik asoslari”) asari lug‘atshunoslik, «Rabi’ ul-abror va nusus ul-axyar» (“Ezgular bahori va yaxshilar bayoni”) risolasi adabiyot va tarix, «Al-Kustos fi-l-aruz» (“Aruzda o‘lchov (mezon)”) asari adabiyot nazariyasiga oid bo‘lib, ushbu kitoblar ham darslik sifatida alohida qimmatga ega. Kaykovusning «Qobusnoma» asari (forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi) (to‘ldirilgan 2-nashri) 44

bobdan iborat bo‘lib, 34-bobi «Nujum (yulduzlar) va handasa (geometriya) ilmi zikrida» deb nomlanadi, ushbu bobda koinot sirlari, geometrik ilmlar o‘rgatilgani uchun undan madrasalarda darslik sifatida foydalanilgan.

Mazkur asarning pedagogika fanida tutgan o‘rnini alohida qayd etish lozimdir. Zero, undan yoshlarni tarbiyalashda ustoz va ota-onalar asrlar davomida foydalanib kelmoqdalar.

Buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy (1441-1501) maorif sohasiga alohida e‘tibor qaratgan bo‘lib, maktablarda diniy hamda dunyoviy ilmlarni birgalikda o‘qitishni taklif qilgan hamda bu jarayonni o‘zi nazoratga olgan. Uning g‘azal, ruboiy va dostonlarida inson go‘zalligi, chiroyli xulq-odobi, kamtarligi va xushtakallumligi ulug‘landi. Uning asarlarida kishilarning axloqiy va aqliy tarbiyasini ta‘minlashga qaratilgan hayotbaxsh g‘oyalar o‘z in‘ikosini topgan bo‘lib, maktabxona va madrasalarda XX asrning boshlariga qadar Alisher Navoiyning she‘riy asarlari darslik o‘rnida qo‘llanib kelindi.

XV-XVI asrlarda ham madrasalarda dunyoviy ta‘lim-tarbiya birmuncha rivojlangan. Bu davrda maktablarda arab tilidan tashqari, eron tillari ham o‘qitilgan. O‘sha davrda fiqh asoslari (huquq), hadis ilmi, arab tili, falakiyot (astronomiya), tabobat ilmlarining o‘qitilishiga katta ahamiyat berilgan. Madrasalarda arab tilining yirik mutaxassisi Jamoliddin Abu Amr Usmon ibn Umar al-Hojib (1175-1249) tomonidan yozilgan «al Kofiya- nahv» (“Sintaksis”) va «ash-Shofia-sarf» (“Morfologiya”) darsliklari arab tilini o‘rganishda yagona qo‘llanma hisoblangan.

Mashhur tarixchi, sharqshunos V.V.Bartold «Ulug‘bek va uning davri» deb nomlangan ilmiy asarida madrasalarda diniy bilimlarga emas, balki dunyoviy fanlar, ayniqsa astronomiya keng o‘qitilganligini ma‘lum qiladi. Ulug‘bek ilm-fan sohasini rivojlantirish bilan bir qatorda, xalqni savodli bo‘lishga da‘vat etgan. Ulug‘bek davrida maktabxona va madrasalarda matematika va astronomiya ilmi rivojlangan, rasadxona barpo etilgan [62; 641-642].

Yuqorida keltirilgan ilmiy dalillar bilan birgalikda shuni ta‘kidlash kerakki, ibn Sino, Kaykovus, Yusuf xos Hojib, Abu Rayxon Beruniy kabi mutafakkirlar bilan bir qatorda, Firdavsiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Mirzo Bobur, Sa‘diy Sheroziylar o‘z asarlarida turkiy xalqlarning ma‘naviyati, urf-odat va an‘analari, yoshlar tarbiyasiga oid qarashlari, bilimga intilishni ulug‘lash, axloqsizlikni qoralash, vatanparvarlik, do‘stlik, insonparvarlikni qadrlash to‘g‘risida qimmatli fikrlar bayon qilganlar. Ularning ilmiy asarlaridan o‘z davrida maktab va madrasalarda bola tarbiyasi, yosh avlodga bilim berish, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishda foydalanilgan.

Mutafakkirlarning mazkur asarlari Turkiston ta‘lim tizimining rivojlanishiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. XII-XIII asrlarga kelib Turkiston maktabxona va madrasalarida o‘quv reja va

dasturlari asosida ta'lim berila boshlangan, darsliklar esa IX-X asrlardagi qadimgi bilimlarni aks ettirgan.

Tarixiy adabiyotlarda yozilishicha, XVII-XVIII asrlarda Buxoroda maktab-maorif sohasida ayrim o'zgarishlar amalga oshirilgan. Amir Shohmurod (1785-1800) hukmronligi davrida madaniyat, adabiyot, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish ishlari birmuncha rivojlangan, biroq uning o'g'li amir Haydar (1800-1826) hukmronligi davrida ilm-fan, madaniyat, jumladan, maktabxonalarda ta'lim-tarbiya ishlari ancha e'tibordan chetda qolgan. Madrasalarda tarix ta'limi sohasida eski bilimlar berilgan, tarix darslari noma'lum muallifning «Tarixi Iskandariy» hamda Alouddin Otamalik Juvayniyning (1236-1283) «Tarixi Jahongushoy» asari bo'yicha o'qitilgan. Madrasa talabalari uch bosqichda o'qishgan. Bosqichlarning biridan ikkinchisiga o'tish uchun sinov-imtihon olinmagan, balki ma'lum darsliklar o'zlashtirib bo'linganidan so'ng boshqalariga o'tilavergan. Madrasalarda to'liq kursni o'qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 darslik-qo'llanmani o'zlashtirish talab qilingan. Zero, maktabxona va madrasalarda darslar arab va fors tillarida olib borilgan. Qo'qon xonligi tasarrufidagi madrasalarda «Ilmi faroiz», «Taqsim ilmi» kabi geometriya va arifmetikaga oid darsliklardan foydalanilgan.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida ma'rifatparvarlar bola ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratganlar. Turkistonda yangi usul maktablari ochilgunga qadar ikki xil:

- 1) musulmon maktabxona va madrasalari;
- 2) rus-tuzem maktablari (bu tipdagi maktablarga gimnaziya va listeylar ham kiradi) faoliyat ko'rsatgan.

Eski tipdagi (musulmon) maktab va madrasalarning o'qitish usuli, darsliklari yangi usul maktablarining o'qitish usuli va darsliklaridan tubdan farq qilib, yangi usul maktablarida diniy hamda dunyoviy ilmlar uyg'unlikda o'qitilgan.

Turkistonda XX asrning boshlarigacha maktab va madrasalarda o'qitish «hijjai qadimiy» («tahajji usulida»), ya'ni kitoblardagi matnlarni yod olish usulida amalga oshirilgan. Bu usul juda qadimiy va murakkab usul hisoblansada, Turkiston maktabchiligida asosiy o'qitish usuli bo'lib keldi.

Maktabxonalarda qat'iy dars jadvali va muayyan o'quv rejasi bo'lmagan. Ularda islom asoslaridan tashqari, arifmetika, geometriya, geografiya, astronomiya, tarix, tibbiyot kabi fanlarga oid bilimlar berilgan. Biroq ushbu yo'nalishdagi dunyoviy fanlardan eskirgan ma'lumotlar taqdim etilgan. Geografiyaga oid o'quv materiallari «Ma'lumotul ofoq», tibbiyotga oid ma'lumotlar esa «Shifoul qulub» kabi kitoblardan o'rgatilgan. Ayrim mutafakkirlar va olimlarning pandnoma, nasihatnoma asarlari ham o'qitilgan.

O'g'il bolalarnikidan farqli ravishda qizlar maktabxonalarida mumtoz shoirlar ijodini o'rganishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ularda qizlar tarbiyasining o'ziga xos jihatlari, chunonchi, uy-ro'zg'or tutish, pazandalik, pokizalik, sharqona odob-axloq kabilarga o'rgatuvchi Aliy Nazimoning «Ta'limi banot», Olimat ul-Banotning «Muosharat odobi», Faxriddin ibn Rizouddinning «Oila», «Tarbiyali xotun» kabi darsliklaridan foydalanilgan [62; 142].

1917 yildan boshlab, maktabxona va madrasalarda rus tili ham o'qitila boshlandi. Shu yili O'zbekiston hududida rus tilida o'qitiladigan maktablar soni 160 taga etdi. Musulmon maktablarida o'quvchilarning yoshi, ruhiy xususiyatlari hisobga olinmagan. Bir vaqtning o'zida turli yoshdagi bolalar bir xonada o'qitilgan. Ma'rifatparvar pedagog S.Ayniy eski maktab haqida eslab, maktabxonaning juda tor, qorong'i bo'lganligi, yorug'lik faqat eshik tirqishlaridagina tushganligi, pol o'rniga bo'yra tashlanganligi, qishda juda sovuq bo'lganligini yozadi. Musulmon maktabxonalarida dars beruvchilar mulla, domla deb yuritilgan, ularning aksariyati o'qishni bilsalarda, yoza olmas edilar. Demak o'z o'quvchilariga ham yozishdan saboq bera olmasdilar.

V.V.Bartoldning fikricha, Turkistonda quyi maktablar, savod maktablarini eron atamasi bilan «Dabiriston» deb atalib kelingan. Bu atama Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida ham uchraydi, adib asarning 18-faslini «Dabiriston ahli zikrida» deb ataydi. Bunda, u o'qituvchilar faoliyatining salbiy jihatlarini ko'rsatadi. Navoiy asarlarida «dabiriston» atamasiga nisbatan «maktab» so'zi ko'proq qo'llanilgan.

Musulmon maktablarida o'zbek tilining grammatik qurilishiga oid ma'lumotlar berilmagan. Domla va otinoyilar bolalar yoshi, ruhiy xususiyatlari va ta'lim-tarbiya talablarini nazarda tutuvchi maxsus darsliklar tuzishga e'tibor qilishmagan. Maktabxona va madrasalarda «Haftiyak», «Chor kitob», «So'fi Olloyor», «Tajvid», «Farzi ayn», «Qur'on» sura va oyatlari, «Devoni Fuzuliy», «Devoni Bedil», «Devoni Amir Navoiy» kabi kitob va she'riy to'plamlar o'qitilgan. Bu haqda jadid ma'rifatparvarlari A.Avloniy, M.Behbudiy, H.Muin, Munavvarqori Abdurashidxonovlar ushbu o'qitilajak asarlarni bolalar yoshiga mos emasligi, ularning ruhiy dunyosiga zid ekanligini ta'kidlaydilar, shuning uchun maktabxonalardagi darslik va o'quv qo'llanmalar hamda ta'lim-tarbiya tizimini zudlik bilan isloh qilish lozim deb hisoblaydilar. 1905 yilda ma'rifatparvarlarning harakatlari o'z natijasini berdi. Shu yildan keyingina maktabxonalarning ta'lim tizimi bir qadar isloh qilindi. O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingach, siyosiy-ijtimoiy sohalarida bo'lgani kabi, ta'lim tizimida ham ayrim o'zgarishlar amalga oshirildi. O'lkaning er usti va er osti boyliklari ruslar tomonidan o'zlashtirildi, Turkiston xalqining ma'naviy-madaniy merosini o'rganuvchi sharqshunos olimlar o'lkaning tarixi va ma'naviy-madaniy taraqqiyotini yorita boshladilar. O'lka erli xalqini ruschadan «savodli qilish»,

yangi iqtisodiy savdo-sotiq tuzilmasiga mos “mirzo”larni etishtirish, mustamlakachilarning bolalariga bilim berish maqsadida 1865-1870 yillardan boshlab rus-tuzem maktablari, gimnaziyaalar ochilib, ularga mos darslik va qo‘llanmalar yaratildi.

Jadidchilik oqimiga tamal toshini qo‘yganlardan biri xivalik shoir Shermuhammad Avazboy o‘g‘li Munisdir. U 1904 yilda «Savodi ta‘lim» risolasini yozadi. Ushbu risola Munisning 1875 yilda Xivadagi toshbosmaxonasida bosilgan she‘rlar to‘plami ham berilgan. Risola taxminan 1911-1913 yillarda O.A.Porstevning toshbosmaxonasida «Savodi ta‘lim ma‘a guldastai riyohin» nomi bilan alohida kitob shaklida bosilgan. 1917 yildan keyin «Savodi ta‘lim» Munisning «Tanlangan asarlar»i tarkibida kitobxonlarga taqdim etilgan. Xat ta‘limi va yozuv asboblari haqidagi birinchi o‘zbekcha risolani xattot Munis yozdi. Ushbu risola Toshkent, Kogonda bir necha marta nashr qilingan. «Savodi ta‘lim»ni ikkiga bo‘lish mumkin: nazariy qismida husnixat ta‘limini o‘rgatgan ustoz haqida, risolani yozishdagi maqsad to‘g‘risida, xat va xat yozish asboblari haqida fikr yuritiladi.

Munis chiroyli yozishni targ‘ib etadi. Kitobning ikkinchi, amaliy qismida arab alifbosidagi har bir harfning o‘lchovi va shakli alohida shoirona bayon qilinadi. Harflarning o‘lchovi, katta-kichikligini qat‘iylashtirishda nuqtani mezon qilib oladi. Munisning ushbu asari o‘z davrida ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan metodik qo‘llanma hisoblangan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida rus pedagog olimlari Turkiston xalqi bolalarini o‘qitish maqsadida maktablar ochib, darsliklar yaratdilar. Biroq ushbu darsliklarda Turkistonning tabiiy sharoiti, turkiy xalqlarning milliy urf-odat va an‘analari, ularning dunyoqarashi va psixologiyasi hisobga olinmadi. Rus-tuzem maktablarini ochishdan asosiy maqsad Turkiston xalqi orasida «ruslashtirish siyosati»ni amalga oshirishdan iborat edi. XX asrning 10-15-yillariga kelib, rus-tuzem maktablarining soni tobora ortib bordi. Rus-tuzem maktablarida ham diniy ta‘lim beruvchi «Zakoni bojiy» o‘qitilgan. Bu orqali xristian dini g‘oyalari targ‘ib etildi.

Buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiyning ta‘lim-tarbiyaga oid g‘oyalarining Turkiston ta‘lim tizimiga ta’siri bilvosita xususiyatga egadir. Uning 1864 yilda yozilgan «Ona so‘zi» darsligi va undan foydalanishga oid metodik tavsiyalari tovush usulining Rossiya maktablarida keng qo‘llanilishiga imkon berdi. «Ona so‘zi» alifbe darsligi 1864 yildan to oktyabr to‘ntarilishiga qadar qayta-qayta nashr qilingan bo‘lib, u uch qismni o‘z ichiga oladi:

- 1) o‘quvchilarga chizdirish uchun rasmlar;
- 2) yozma (husnixat) alifbo;
- 3) bosma alifbo.

Darslik oddiydan murakkabga o‘tish tamoyili asosida tuzilgan bo‘lib, u turkistonlik ma‘rifatparvar-pedagoglar uchun muhim namuna, dasturulamal bo‘lib xizmat qildi.

Tatar pedagogi I.Gasprinskiy darslik tuzish sohasida turkistonlik pedagoglarga namuna bo'ldi. Uning «Xo'jai sibyon» («Bolalar muallimi») darsligi 1889 yilda yozilgan bo'lib, 4 ming nusxada chop etilib, u boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish kitobi hisoblangan. Muallifning 1898 yilda yaratgan «Rahbari muallimun yoki muallimlarga yo'ldosh» risolasi jadid maktablari uchun tuzilgan ilk o'quv-uslubiy qo'llanmadir. Qo'llanmada muallif yangi ta'lim usulining nazariy-metodik jihatlariga to'xtaladi va o'quvchilarga savod o'rgatishning ayrim qoidalarini ishlab chiqadi. Ushbu qoidalar quyidagilar:

- butun alifboni birdan o'rgatib, bildirmoq og'irdur. Ibtido (boshda) uch, besh harf tushuntirib, zabt etmoq, ancha engildir;
- birinchi darsdan shogirdlarni yozishga o'rgatish yaramaydi;
- darslar muayyan soatlarga, qismlarga ajratib, («hissa-hissa») o'rgatilishi lozim;
- o'quvchi bir darsni o'zlashtirmagunicha ikkinchisiga o'tmaslik kerak;
- harflar bilan tanishtirganda, ular haqida kengroq ma'lumot berilgani yaxshi. Har bir harfning ohangi, talaffuzini anglatish lozim;
- islomiy harflarning har biri so'zdagi o'rinlariga qarab muayyan shaklga ega bo'lgani uchun o'qituvchi buni butun o'qish davomida diqqatidan qochirmasligi kerak.

I.Gasprinskiy shunday yozadi: «Ongni tilshunoslik emas, balki ilmiy asosdagi tarbiya rivojlantiradi. Isloh etishimizning mohiyati, bizningcha, madrasalar ta'limiga tatar (turk) tilidagi elementar, boshlang'ich ilmlar (qisqacha jug'rofiya, tarix, tabiiy fanlar, arifmetika, pedagogika va rus qonunchiligi asoslari) kiritilishidir» [36; 7].

Tatar adabiyotining asoschisi Olimjon Ibrohimov 1916 yilda «Tillari boshqa bo'lsada, ko'ngillari bir» maqolasida turkiy xalqlarning XX asr boshidagi ta'lim sohasidagi taraqqiyoti haqida fikr yuritib, M.Behbudiyning alifbe darsligi haqida iliq fikrlar bayon qilgan edi.

Ikki xil millat vakillari, ya'ni M.Behbudiy va I.Gasprinskiylarning pedagogik faoliyati, ularning bu sohadagi hamkorliklari haqida ijobiy fikrlar mavjud. I.Gasprinskiy maktabxona va madrasalarni isloh qilish, ularda dunyoviy fanlarni o'qitish masalasini ko'tarib chiqdi. U diniy fanlar arab, fors, rus tili, tibbiyot, hikmat, kimyo, nabotat, nujum, handasa kabilarni o'rgatish lozimligini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, Ismoil Gasprinskiy 1884 yil Boqchasaroyda birinchi jadid maktabini ochdi. U jadid maktablari uchun tuzgan darsliklarida yangi usul maktablarining qurilish reja loyihasidan boshlab sinf ichki jihoz uskunalari, o'qituvchining sinfda turadigan joyi, o'rindiqlarning joylashish tartibi, bo'r, doska va shu kabilar haqida batafsil to'xtaladi. Ismoil Gasprinskiy «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh» qo'llanmasida yangi usul maktablarining muhimligi, mohiyati, qoida va tartiblari, o'tiladigan darslar, ularning mazmun yo'nalishi, kunlik,

haftalik darslar, soatlar, tanaffuslar, ta'tillar, imtihonlar, shuningdek, moliyaviy ta'minot, muallim va uning sifatlari haqidagi zarur ma'lumotlar ustida to'xtalgan. U yuqoridagi ma'lumotlarni bir tizimga soldi.

O'zbek ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiy I.Gasprinskiyning maorif sohasidagi ishlarini Turkistonda davom ettirdi. Turkistonda ma'rifatchilik oqimining kelib chiqishiga ikki: ichki va tashqi omillar ta'sir qilgan. Tatar ma'rifatparvari I.Gasprinskiyning pedagogik faoliyatidan Turkistonda ham keng foydalana boshlandi. U maorif tizimi oldida bir qator muammolar mavjudligi, ularni qay tariqa echish lozimligini tushuntirdi, ya'ni maktabning madrasadan ajralib chiqishi, boshlang'ich sinflar uchun alohida o'qituvchilar tayyorlanishi, o'qituvchining oylik maosh bilan ta'minlanishi, o'qish va yozishni eski «hijjalama» yo'li bilan emas, balki yangi «Alifbo» kitoblari vositasida o'rgatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bundan tashqari, u maktablarda faqatgina o'qish emas, yozuvga ham ahamiyat berish zarurligi, qizlar uchun alohida maktablar ochib, ularda o'qish va yozishga e'tibor qaratilishi, o'qitish ma'lum bir dastur asosida va darsliklar vositasida olib borilishi lozimligini ta'kidlagan edi.

1893 yil Ismoil Gasprinskiy amir Abdullaxonning roziligi bilan Buxoroda birinchi jadid maktabini ochadi. 1903 yilga kelib esa Buxoroda jadid maktablarining soni 6 taga etgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, rus ziyolilari Turkiston maktablari uchun o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratdilar. Jumladan, V.P.Nalivkin, S.M.Gramenistkiy, M.A.Terentev, L.Grigorev, G.S.Yachnik, M.M.Orakulov, M.Volper kabilar rus-tuzem maktablarining o'qituvchi hamda o'quvchilari uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalari tuzdilar.

1885 yilda rus ma'rifatparvari V.P.Nalivkinning «Азбука для русско-мусульманских школ оседлого населения Туркестанского края» («Turkiston o'lkasidagi o'troq aholiga mo'ljallangan rus-musulmon maktablari uchun alifbo») darsligi Toshkentda chop etildi, 1875 yilda M.A.Terentevning «Русская азбука для школ Средней Азии» («O'rta Osiyo maktablari uchun rus alifbosi») darsligi, 1886 yilda G.S.Yachnikning «Первая книга после азбуки» («Alifbodan keyingi ilk kitob») darsligi, 1887 yilda M.M.Orakulovning «Самоучитель русского языка для русско-мусульманских школ» («Rus musulmonlari maktablari uchun rus tilidan mustaqil ishlar») darsligi, L.Grigorevning «Русское слово» («Rus so'zi») darsligi, M.Volperning «Первая книга для чтения» («Birinchi o'qish kitobi»), «Вторая книга для чтения» («Ikkinchi o'qish kitobi»), «Третья книга для чтения» («Uchinchi o'qish kitobi») darsliklari, 1861 yilda K.D.Ushinskiyning «Bolalar dunyosi va xrestomatiya», 1864 yilda «Ona tili», «Родное слово», «Детский мир» («Bolalar dunyosi») darsliklari, V.P.Vaxterovning «Мир в рассказах для детей» (Bolalar uchun hikoyalar dunyosi) darsligi, L.N.Tolstoyning «Русская книга для чтения» («O'qish uchun ruscha kitob») darsliklaridan foydalanganlar.

1898 yildan Turkistonda S.M.Gramenistkiyning Toshkentda nashr qilingan «Первая книга для чтения» (“Birinchii o‘qish kitobi”), «Вторая книга для чтения» (“Ikkinchi o‘qish kitobi”), «Третья книга для чтения» (“Uchinchi o‘qish kitobi”) darsliklari keng qo‘llana boshlandi. S.M.Gramenistkiy ushbu darsliklarni tabiiy-ko‘rgazmali usulda yozdi. Uning «Первая книга для чтения» (“Birinchii o‘qish kitobi”) darsligi 11 marta nashr qilingan. Ushbu darslik ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida (3-32-betlar) alifbo o‘rgatiladi. Darslikning har bir betda o‘rgatilayotgan harf-tovushga mos chiroyli rasm va husnixat namunalari berilgan. Darslikning ikkinchi qismi «Книга первая» (“Birinchii kitob”) deb atalib, 32-84-betlarni o‘z ichiga oladi. Bu qismda 87 paragraf bo‘lib, har bir paragraflarda kichik-kichik hikoyachalar, shu hikoyalarga mos rasmlar, hikoya oxirida esa savollar berilgan. Darslikda bor-yo‘g‘i 5-12 qatorli ettita she‘r mavjud, 85-95-betlarda esa ruscha-o‘zbekcha-qozoqcha lug‘at berilgan.

S.M.Gramenistkiyning «Вторая книга для чтения» (“Ikkinchi o‘qish kitobi”), darsligi 1898 yilda yozilgan bo‘lib, 9 marta qayta nashr qilingan. Darslik to‘qqizta bo‘limdan iborat. Ular quyidagilar: Maktab, Uy va bog‘, Uy hayvonlari, Shahar va qishloq, Dala, Yovvoyi hayvonlar, Cho‘l va o‘rmon, Tog‘ va daryolar, Vatan. Shuni e‘tiborga olish kerakki, darslik Turkiston aktablari uchun yozilgan bo‘lsada, unda O‘rta Osiyo xalqlarining hayoti, larning milliy qadriyatlari, ajdodlarning urf-odatlariga oid birorta ham mavzu yoki ma’lumot yo‘q. Darslikdagi rasmlar «Первая книга для чтения» (“Birinchii o‘qish kitobi”), darsligidagi rasmlardan ancha oz. Mavzular oxirida savollar berilgan, aksariyat she‘rlarning oxirida esa savollar berilmagan. S.M.Gramenistkiyning «Третья книга для чтения» darsligi 1899 yil yozilgan bo‘lib, 5 marta nashr qilingan. Ushbu darslik 4 bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda, kichik-kichik badiiy asarlar yoki ulardan parchalar berilgan. Masalan, N.A.Nekrasovning «Мороз-красный нос» (“Qizil burunli qor”), A.S.Pushkinning «Сказка о рыбаке и рыбке» (“Baliqchi va baliq haqida ertak”) kabi ertak va she‘rlari kiritilgan. Ikkinchi bo‘limda Rossiya davlati haqida turli tarixiy ma’lumotlar berilgan. Uchinchi bo‘limda esa Rossiyaning Evropa qismi, Sibir va Turkiston haqida, to‘rtinchi bo‘limda tabiat haqida ma’lumotlar berilgan, jumladan ushbu bo‘limda «Toshko‘mir haqida», «Tuzni qaerdan va qanday oladilar?» tarzidagi boshlang‘ich ma’lumotlar taqdim etilgan. S.M.Gramenistkiyning chala darsligi ham Turkistondagi rus-tuzem maktablari uchun yozilgan bo‘lsada, o‘lka haqida ma’lumotlar juda oz.

Masalan, 182 betli «Третья книга для чтения» darsligida Turkiston haqida bor-yo‘g‘i ikkita matn bor. Ushbu darsliklarni o‘qish davomida o‘quvchilar rus-mumtoz shoir va yozuvchilari I.A.Krilov, A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.A.Nekrasov, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoyning asarlaridan olingan parchalarni rus tilida o‘qishga muyassar bo‘lganlar.

Yuqoridagilardan tashqari, S.M.Gramenistkiy o'zbek xalqi bolalari uchun ko'rgazmali yoki tabiiy metod bilan alifbe darsligi tuzgan va u ta'lim tizimida yaxshi samara bergan.

1923 yil Turkistonda rus ziyolisi Arjenikovning «Руководство по арифметике» qo'llanmasini ikkinchi qismi nashr qilindi. Hatto rus-tuzem maktablarida «Учебник немецкого языка» (“Nemis tilidan darslik”) o'qitilgan. Rus-tuzem maktablarining rus sinflari uchun esa “O'zbek tili” darsligi mavjud bo'lgan bo'lib, u 13-14 bosma taboqdan iborat bo'lgan. Bundan kelib chiqadiki, rus-tuzem maktablarida chet tili ham o'rgatilgan.

Bu davrda rus olimi A.P.Nechaevning «Daryo va quruqlik bo'ylab» deb nomlangan geografik majmuasi chop etilgan. Darslik o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda nihoyatda sodda tilda yozilgan, uni tuzishda o'quvchilarning qiziqishlari ham hisobga olingan.

V.Flerovning 1918 yilda «Ясное небо» (“Musaffo tong”) nomi bilan chiqarilgan ikkita o'qish kitobi, E.D.Polivanov va L.I.Palminning «Мак» (“Lolaqizg'aldoq”) nomli o'qish kitobi, K.A.Voskresenskaya, N.P.Arhangelskiy, O.F.Topolskayalarning O'rta Osiyodagi rus bo'lmagan maktablar o'quvchilari uchun «Мак» (“Lolaqizg'aldoq”) nomi bilan chiqarilgan birinchi ruscha alifbesi, shuningdek, mazkur mualliflarning O'rta Osiyodagi birinchi bosqich maktablari uchun chiqarilgan «Маленький Туркестанец» (“Yosh turkistonlik”) o'qish kitobi Oktyabr to'ntarishidan keyingi dastlabki davrlarda chiqarilgan darsliklari va o'quv qo'llanmalari bo'lgan.

Pedagog olim Y.Abdullaevning yozishicha, rus-tuzem maktablari ikki: ruscha va o'zbekcha sinflarga bo'lingan. Rus-tuzem maktablaridagi o'zbek tilida o'qitiladigan sinflarining peshqadam muallimlari 1900 yillardan boshlab, o'z darsliklarida tovush usulida tuzilgan tatarcha alifbe kitobidan foydalanganlar, lekin ushbu kitobning tili va mazmuni o'zbek tilida o'qiydigan bolalarga to'g'ri kelmas edi. Ushbu kamchiliklarni hisobga olib, keyinchalik Turkistonda ham tovush usulida o'zbekcha alifbe darsliklari yozildi (Abdullaev Y. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. – Toshkent: O'rta va Oliy maktab, 1960. – 150 b.).

1919-20 yillarda yangi tipdagi sovet maktablarida o'quv qo'llanmalariga katta ehtiyoj mavjud edi. Ushbu muhtojlikni nisbatan qondirish maqsadida, shu davrda o'zbek tilida «Boshlang'ich geografiya» o'quv qo'llanmasi, «Turkiston» (tarix va geografiyani o'qitish uchun qo'llanma), arifmetika darsligi, Qori Niyoziyning «Tabiatning bir bo'laki» (tabiatshunoslikni o'qitish uchun qo'llanma), shuningdek, alifbolar va o'qish kitoblari ham chop etildi

Bu davrda butun Turkistondagi kabi qoraqalpoq o'lkasida ham maktab va maorif sohasida yangicha qarashlar davri boshlandi. Jamiyatda milliy uyg'onish, mustaqillik uchun kurashga intilish kabi g'oyalarni ilgari surgan ma'rifatparvarlar etishib chiqdilar. Shunday ma'rifatparvarlar pedagog-olim Seyfulg'abit Majidov (1867-1938), Sidiq To'qban o'g'li (1857-

1917), Ajiniyoz, Q.Amirov, Qozi Mavlik, Muhammad Idris (1869 y. tug‘ilgan), Islom Bobojonov, Q.Avezov (1897–1940), Q.Ayimbetov, B.Ergaliev, A.Dosnazarov, O.Ermanov, K.Nurmuxamedov, I.Bekimbetov, Jangabay Qoratay o‘g‘li, Abdiqodir Bekimbet o‘g‘li, Qidirniyozlar maktablar ochdilar, ularning ayrimlari darslik va o‘quv qo‘llanmalari tuzdilar.

XX asrning boshlarida Qoraqalpog‘iston maktablarida darslik va o‘quv qo‘llanmalar etishmagani sababli qozoq maktablari uchun yaratilgan A.Baytursinovning “Alifbo”, “O‘qish kitobi” (1914) darsliklari ba’zi o‘zgarishlar bilan qoraqalpoq tiliga o‘girilib o‘rganilar edi, S.Majidov esa turkiy xalqlarda keng tarqalgan arab alfaviti namunasini ijodiy o‘rganib, arab harfi asosida Ahmed Baytursinovning 1912 yilda qozoq alfaviti, Eshanali Arabaev 1924 yilda qirg‘iz alfavitini (alifbosini) qanday ishlab chiqqan bo‘lsa, S.Majidov ham qoraqalpoq tili fonetikasiga moslashtirib qoraqalpoq alfaviti va “Alifbe” darsligini yaratdi. S.Majidov qoraqalpoq xalqini savodli qilish maqsadida “Alifbo”, “O‘quv kitobi”, “Egdalar (“Kattalar savodi”)” (1925) kabi maktab darsliklari va dasturlarini yaratdi. U butun hayoti davomida qoraqalpoq xalqining bolalariga ma’rifat, ta’lim-tarbiya berish ishi bilan shug‘ullangan. S.Majidov yaratgan ushbu darsliklar qoraqalpoq xalqi uchun olamshumul voqea bo‘lib, ular qoraqalpoq milliy yozuvida chop etilgan edi.

Jadid maorifchilari mamlakat rivoji, millatning taraqqiyoti, o‘zlikni anglashda tarix va geografiya fanlarining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratdilar. Ular dinga emas, balki diniy aqidaparastlikka qarshi bo‘ldilar. Xususan, M.Behbudiy faoliyatida tarix va geografiya muammolarini o‘rganishga undash muhim ahamiyat kasb etdi. U barkamol shaxsni tarbiyalashda va jamiyatni boshqarishda tarix fanining o‘rni beqiyosligini ta’kidlaydi. U «Tarix va jo‘g‘rofiya», «Turkiston tarixi», «Sart so‘zi majhuldir» kabi asarlarida faqatgina Vatan tarixini emas, Evropa va jahon mamlakatlari tarixini bilish zarurligi haqida fikr yuritgan.

Ma’rifatparvarlar maktab-maorif sohasida keskin burilish yasashga kirishdilar. O‘qitishning yodlatish usuli rad etildi, uning o‘rniga harf-tovush usuli joriy qilindi. Savod chiqarish favqulodda tezlashdi, o‘quv dasturlari va darsliklar tuzildi.

Taniqli o‘zbek adibi Oybek Munavvarqorining Toshkentdagi maktabida o‘qigan. U o‘quvchilik davrlarini eslab, o‘quv dasturidan diniy ta’limot; muqaddas an’analar; islom ta’limoti tarixi; arab grammatikasi; meros huquqi; arifmetika; butunjahon jug‘rofiyasi; islom tarixi; muqaddas tarix; arabiy va turkiy imlo kabi fanlar o‘rin olganligini ta’kidlaydi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlar, o‘tmishda maktab va madrasalarda amalda bo‘lgan ta’lim mazmuni va o‘quv vositalarini o‘rganish natijalarining ko‘rsatishicha:

1) asosan mutafakkirlar, donishmandlar tomonidan yaratilgan ilmiy hamda badiiy asarlardan maktab va madrasalarda darslik sifatida foydalanilgan;

2) mazkur manbalarda turli sohalardagi bilimlar asosan integrastiyalashtirilgan holda bayon etilgan;

3) maktab va madrasalarda barqaror o'quv rejalari asosida qat'iyalashtirilgan ta'lim mazmuni mavjud bo'lmagan;

4) maktab va madrasalardagi ta'lim mazmuni va o'quv vositalari asosan o'quvchilar, toliblar, mudarrislarining hohishlari va ixtiyoriy tanlovlar asosida belgilangan;

5) maktab va madrasalarda muayyan ta'lim tizimi va darsliklarning mavjud bo'lmaganligi, mutolaa usulining ustuvorligi o'quvchi hamda talabalar yozma savodxonligining sekin rivojlanishi, ular o'rganadigan bilimlarning davrlar o'tishi bilan eskirishiga olib kelgan. Ularning barchasi ta'lim tizimida muayyan ta'lim mazmuni va barqaror darsliklarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirgan;

6) O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga majburan kiritilish o'lka ta'lim tizimida ayrim o'zgarishlarning amalga oshirilishiga zamin yaratgan.

Xususan, o'lkada ta'lim muassasalarining yangi shakli rus-tuzem maktablari va gimnaziyalar vujudga kelgan. Garchi ularda avvalo chor Rossiyasining mustamlakachilik manfaatlari nazarda tutilgan bo'lsa-da, taraqqiyparvar rus ziyolilari tomonidan yaratilgan darslik va qo'llanmalar ta'lim tizimiga yangilik olib kirgan;

7) jadid maktablarida amal qilgan, millat ziyolilari tomonidan yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalari esa yoshlarda millatparvarlik, madaniy-ma'rifiy merosni ardoqlash, milliy urf-odat va an'anaga rioya etish, o'zbek tilini asrab-avaylash va rivojlantirish kabi fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qilgan.

I.2. Uzlüksiz ta'lim tizimi uchun didaktik materiallar yaratish va takomillashtirish - dolzarb pedagogik muammo sifatida

Boshlang'ich ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish bevosita foydalaniladigan didaktik materiallar mazmuni va tuzilishiga bog'liq.


V.V.Kraevskiy "didaktik material" tushunchasini nazariy jihatdan tahlil qilishga alohida ahamiyat qaratadi. U didaktik materialni ma'lumot mazmunining eng so'nggi darajasi, didaktik loyihalashning eng keyingi bosqichi sifatida sharhlaydi, xususan, "Didaktik material o'quv kursining (bu erda o'quv predmeti ko'zda tutilgan) elementi bo'lib, ta'limni loyihalash faoliyatining vositasi va tarkibiy qismi funkstiyalarini bajaradi" [29, 11].

V.V.Kraevskiyning yozishicha, didaktik material o'quv kursining tarkibiy qismi bo'lib, unda pedagogik faoliyatning me'yoriy sohasi aks etadi. Didaktik material o'qitish faoliyatining ikki xil nuqtai nazarini yoritib, ikki xil ish bajaradi: ta'lim vositasi; o'qitish faoliyati loyihasi [29,10] .

Didaktik materiallar - bu biror bir ko'rinishda ifodalangan bilimni taqdim qilishdir. Umumiy qilib didaktik materiallar deganda, bilish jarayonida pedagogik jihatdan ishlov berilgan va tizimga solingan maqsadli vazifalar to'plamini tushunish mumkin.

Boshlang'ich ta'limga oid **didaktik materialning** ta'lim jarayoniga qadar bo'lgan holati **darslik** muallifining pedagogik layoqatiga, uning ta'lim jarayoni mohiyatini bilishiga, ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish va didaktik loyihalash sohasidagi mahoratiga bog'liq.

Boshlang'ich ta'limga taalluqli didaktik materialning **ikkilamchi loyihalari** *dars loyihasi, ko'rgazmali qurollar (tabiiy materiallar, illyustratsiya, chizma, audio va video materiallar), o'quv topshiriqlari tizimi (test topshiriqlar, o'yin topshiriqlari, tarqatma materiallar to'plamlari)* dan iborat bo'lib, ularga pedagogik jihatdan ishlov berilib, darslikdagi mavjud holatdan yangi holatga o'tkaziladi. Didaktik materiallar tuzilmasini biz quyidagi sxema bo'yicha ifodaladik:



Boshlang'ich ta'lim didaktik materialini umumlashtirish, umumiy qoida va qonuniyatlarga ko'ra alohida misol, topshiriqlar asosida oydinlashtirish mualliflarning tajriba va mahoratlariga bog'liq.

Boshlang'ich ta'lim darsliklarining pedagogik ishlov berilgan eng kichik qismi didaktik material hisoblanadi. Didaktik material o'quvchilarga mo'ljallangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kitoblar va boshqa materiallarda, o'qituvchiga yordam beradigan metodik tavsiyalarda yoritiladi.

Bizningcha, didaktik materiallar muayyan o'quv fani mazmunini yorituvchi va maqsadini ifodalovchi, o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun moslashtirilgan bilimlar tizimidan iborat.

O'quv materiallari axborot manbai bo'lib, boshlang'ich ta'lim jarayonini loyihalashda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishi uchun "moslashtiriladi".

Boshlang'ich ta'lim o'quv materiallari o'qituvchining shaxsiy yondashuviga muvofiq loyihalandi va mazkur loyiha asosida o'rganiladigan mavzular o'quvchilarga ma'lum ketma-ketlikda uzatiladi.

Didaktik materiallarni loyihalash uni o'rganish va mustahkamlash, takrorlash va amaliyotga tadbiq qilish, umumlashtirish va nazorat qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib ta'lim jarayonining samaradorligini taminlaydi.

So'nggi yillarda hamdo'stlik mamalakatlari olimlari bilan bir qatorda o'zbek olimlari ham darsliklar va o'quv materiallari yaratish muammosini tadbqiq etishga alohida e'tibor qarata boshladilar. Chunonchi, D.Shodiev [56; 140], R.Safarova [41, 42], va M.Rixsieva [37, 88] lar tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarini tekshirish va baholash mezonlar, maktab darsliklarining yangi avlodiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish borasida amaliy harakatlar olib borilgan bo'lsa, M.Maxmudov [33] ta'limni didaktik loyihalash tamoyillari, o'quv materiali va uning turli shakllarini loyihalash muammosini tadbqiq etishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflar tomonidan didaktik materiallarni takomillashtirishning umumiy jihatlari borasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan qarashlar ilgari surilgan bo'lsada, ayni vaqtga qadar boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari bo'yicha yaratilgan darsliklar didaktik materiallarini takomillashtirishning didaktik jihatlari tadqiq etilmagan.

Boshlang'ich ta'lim darsliklarida o'z ifodasini topgan didaktik materialning asosiy hajmini DTS va o'quv dasturlarida belgilangan me'yoriy bilimlar egallaydi.

Boshlang'ich ta'lim darsliklaridagi didaktik materiallarni takomillashtirishning samarali usullarini ishlab chiqish, uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konstepstiyasi, davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, darslik hamda o'quv materiali orasidagi muvofiqlikni ta'minlashga jiddiy e'tibor berish, ular orasidagi uzviylikni ta'minlash, shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish zarur.

Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti [49], o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar va boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ayni paytda DTS asosidagi o'quv dasturlarini takomillashtirish, ulardagi o'quv materiallari uchun belgilanayotgan yuklamani o'rganib chiqish asosida darsliklardagi ortiqcha takrorlashlarni bartaraf etish hamda muqobil va raqobatbardosh darsliklarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, yagona o'quv darsligi asosida boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish o'quvchilar, xususan, materiallarni o'rta va past darajada o'zlashtiradigan o'quvchilar uchun jiddiy qiyinchilik tug'diradi. O'quvchini mustaqil bilim olish malakalar bilan qurollantirish zaruriyati o'quv materiallarini didaktik jihatdan maxsus ravishda qayta ishlashni taqozo qiladi.

Darslikning didaktik tizimi vazifalari qat'iy belgilab berilmaydi, u o'zgaruvchan, harakatchan bo'lib, ta'lim jarayonining dolzarbligi shuningdek, ta'lim turi, didaktik konstepstiya va o'quv fani mazmuniga muvofiq tanlanadi. Darsliklarning funkstional yuklamasini kamaytirish uning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishni talab etadi.

D.D.Zuev maktab darsliklarini tarkibiy tuzilishi xususida fikr yuritarkan, uning tarkibiy elementlari quyidagilar ekanligiga alohida urg'u beradi:

1. Matnlar: a) asosiy; b) qo'shimcha; s) ilova.

2. Matndan tashqari qismlar: a) o'zlashtirish apparatini tashkil etish; b) tasvirlar; s) yo'naltiruvchi apparat.

Muallifning fikricha, darsliklarning tarkibiy qismlari bir- biriga o'zaro muvofiq holda tanlanadi [25, 30-45].

V.G.Beylinson o'z izlanishlarida darsliklar o'quv materiallarini loyihalash masalasini tadqiq etarkan, unda yo'naltiruvchi apparatning alohida o'rin tutishi borasida so'z yuritadi. Muallifning fikricha, yo'naltiruvchi apparat quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: 1) kirish; 2) mundarija, 3) boblarga ajratish; 4) shartli belgilar; 5) ko'rsatkichlar; 6) bibliografiya; 7) kolontitul (sahifa tepasidagi mavzu nomi) [20, 45-55].

O'quvchilarni darsliklar bilan mustaqil ishlashga yo'naltirishda va didaktik materialni talab darajasida o'zlashtirishlarini ta'minlashda yo'naltiruvchi apparatning tarkibiy tuzilmasidan o'rin olgan materiallar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

V.V.Davidov [23] o'quv materialini tashkil etgan tushunchalar tizimini shakllantirish jarayoniga nisbatan quyidagi mantiqiy- psixologik talablarni qo'yadi:

- muayyan o'quv fani yoki uning asosiy bo'limlari tarkibiy tuzilishi bilan bog'liq tushunchalarning o'quvchilar tomonidan ularni keltirib chiqaruvchi moddiy sharoitlar mohiyatini tahlil etish yo'li bilan o'zlashtirilishi lozim;

- umumiy va mavhum bo'lgan tushunchalarni o'zlashtirish alohida va aniq tushunchalar bilan tanishishdan avval amalga oshirilishi kerak;

- u yoki bu tushunchaning moddiy manbalarni o'rganishda o'quvchilar mazkur tushunchaning ob'ekti, mazmuni va tarkibiy tuzilishini belgilab beruvchi genetik, boshlang'ich hamda umumiy bog'lanishlarni topa olishlari zarur;

- mazkur aloqalar predmet-grafikli yoki belgili modellar vositasida amalga oshiriladi;

- o'quvchilar shunday predmetli harakatni vujudga keltirishlari kerakki, uning vositasida o'quv materiallarida o'z aksini topgan ob'ekt mohiyatini yorituvchi muhim aloqalarni aniqlash va xossalarini o'rganishi zarur;

- o'quvchilar predmetli harakatlarni bajarishdan asta-sekin aqliy faoliyatni bajarishga kirishishlari lozim.

Demak, o'quvchilar boshlang'ich ta'lim darsliklaridagi o'quv materiallari asosini tashkil etgan tushunchalarni ma'lum ketma-ketlik va izchillikda o'zlashtirishlari, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni modellarda aks ettira olishlari ular tomonidan fan asoslarini chuqur egallashlari

uchun sharoit yaratadi. Darsliklarida ushbu faoliyatni amalga oshirishga doir mashqlar o'z ifodasini topishi zarur. Ta'lim berish jarayoni intellektual faoliyat va mantiqiy munosabatlarning yuzaga kelishiga to'la zamin yaratmaydi. O'zlashtirilayotgan material o'quvchi uchun shaxsiy ma'no kasb etadi. Ya'ni, ta'lim bir xil sharoitda berilsada, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish turlicha bo'lishi mumkin. Shunga qaramay tadqiqot qilish maqsadida o'quv materialini loyihalashda ushbu muammoni hal etish va ta'lim berishning qulay usullarini qo'llash ijobiy natijalar beradi.

Didaktikaning psixologik xususiyati, o'quv materialining tarkibiy tuzilishini didaktik jihatdan tahlil qilish asosida yoritib beriladi. Bunday tahlil natijasida o'quvchilarda bilim olishga nisbatan qiziqish yuzaga keladi, shu bois o'quv materialining tuzilishiga alohida e'tibor berish zarur.

Tadqiqotni olib borish jarayonida boshlang'ich ta'lim darsliklari didaktik materiallarini loyihalash quyidagi talablarga muvofiq bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ijobiy natijalar berishi kuzatildi: 1. Darsliklar o'quv materiallarini loyihalashda mazkur faoliyatning to'g'ri tashkil etilishiga erishilishi, chunonchi: muayyan o'quv fanini o'qitish jarayonida hal qilinadigan ta'limiy vazifalarni aniq belgilab olish; o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan o'quv materiallarining hajmi va tavsifini belgilash, shuningdek mundarijaning elementar ravishda tahlil etilishiga erishish; o'quvchilarning bilish tajribasidan boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarini o'qitish (fanlararo aloqalar), qo'llash natijalarini aniqlangan tavsifi va bilimlar hajmini belgilash; o'quv materiallarni taqdim etishning mantiqiy va didaktik izchilligini aniqlash (ushbu jarayonda o'quvchilarning mavjud ko'nikma va malakalari hamda bilimlarni amaliyotda qo'llash tajribalariga tayanish maqsadga muvofiqdir).

2. Boshlang'ich ta'lim o'quv materiallarining tarkibiy tuzilmasini qayta ishlash.

3. Darslik mundarijasini ishlab chiqish xususan: bo'limlarni mavzularga bo'lish; o'quvchilarning bilish faoliyatini modellashtirish asosida ko'rgazmali vositalar tayyorlash; o'quvchilar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar yuzasidan vazifalarni belgilash; o'zlashtirilgan nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarni mustahkamlash asosida teskari aloqani amalga oshirish (vazifalarni saralash, nazorat savollari, kuzatish uchun vazifalar va hokazolarni belgilash); tarkibiy qismlarni darslik sahifalariga joylashtirish tartibini aniqlash; mavzularni o'quvchilarning yosh, fiziologik va gigenik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli shriftlarda ajratish, harflar kattaligi, so'zlar, iboralar, ranglar, ta'kidlar (tagiga chizish, ramkaga olish, so'zlar yoki iboralarni bir-biridan chiziqlar bilan ajratish, bosqichma-bosqich berish va hokazolar) ning aks etishiga ahamiyat berish; matnlarni tanlash; o'qitish vositalarining tavsifi va tuzilishini aniqlash, muayyan mavzuni o'rganishda qo'llaniladigan yordamchi

materiallar (namoyishli ko'rgazmalar, diapozitivlar, diafilmlar, disklardagi yozuvlar, magnitafon yozuvlari, aniqlagichlar va boshqalar)ni ishlash; darslik materialini o'rganish jarayonida o'quvchilarning o'quv vositalaridan foydalanishlarini ta'minlash uchun xizmat qiladigan vazifalar mazmunini tanlash; darslikning har bir sahifasi va mavzuni ergonomik nuqtai nazardan bezash.

4. Bo'limlar bo'yicha qo'shimcha vazifalarni ishlab chiqish (xususan, darslikka kiritilmagan, biroq o'quv jarayonida qo'llanadigan ta'limiy vositalar tizimini belgilash va ularni berilgan ma'lumotlarga asosan loyihalash).

5. Darslik bo'limlarini bezash, ya'ni: bo'limlarning mavzularga mutanosib kelishiga erishish; bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash, qo'llash va tekshirish usullarini ishlab chiqish, o'quvchilar boblarni o'rganish davomida egallashlari uchun zarur bo'lgan ta'lim vositalarini aniqlash va ishlab chiqish; ta'lim vositalarining tarkibiy tuzilmasini aniqlash, darslikning muayyan bo'limida taqdim etilgan va sinf xonalarini jihozlash uchun tanlangan darslik materiallariga muvofiq loyihalash.

6. O'qituvchi uchun darslikdan foydalanish jarayonida o'quv vositalarini qo'llashga doir metodik ko'rsatmalarni berish (metodik qo'llanma tayyorlash) kerak.

1-bob bo'yicha xulosa

1. Markaziy Osiyoda asosan mutafakkirlar, donishmandlar tomonidan yaratilgan ilmiy hamda badiiy asarlardan maktab va madrasalarda darslik sifatida foydalanilgan va mazkur manbalarda turli sohalardagi bilimlar asosan integrastiyalashtirilgan holda bayon etilgan.

2. Maktab va madrasalarda muayyan ta'lim tizimi va darsliklarning mavjud bo'lmaganligi, mutolaa usulining ustuvorligi o'quvchi hamda talabalar yozma savodxonligining sekin rivojlanishi, ular o'rganadigan bilimlarning davrlar o'tishi bilan eskirishiga olib kelgan. Ularning barchasi ta'lim tizimida muayyan ta'lim mazmuni va barqaror darsliklarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirgan.

3. Jadid maktablarida amal qilgan, millat ziyolilari tomonidan yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalari yoshlarda millatparvarlik, madaniy-ma'rifiy merosni ardoqlash, milliy urf-odat va an'anaga rioya etish, o'zbek tilini asrab-avaylash va rivojlantirish kabi fazilatlarini tarkib toptirishga xizmat qilgan.

4. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida foydalanilgan didaktik materiallarni mazmuni, xususiyatlari hamda foydalanish imkoniyatlariga ko'ra 2 guruhga ajratdik.

II BOB. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI

2.1. Boshlang‘ich ta‘limda foydalaniladigan didaktik materiallarni yaratish tamoyillari

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallarni yaratish ma‘lum tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Didaktik materiallarni yaratishda didaktik va xususiy-metodik tamoyillar ta‘lim-tarbiya jarayonining muvofiqligi, izchilligi, uzluksizligini ta‘minlashga yordam beradi.

X.I.Ibragimov va N.I.Tayloqovlar yangi avlod darsliklarini yaratishning 19 ta tamoyilini izohlab o‘tadi [27, 12].

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quv materiallarini yaratishda umumdidaktik va xususiy tamoyillar qo‘llanadi.

1. O‘quv materiallarining tarbiyaviy xarakterda bo‘lishi tamoyili.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallar o‘quvchilarni demokratik g‘oyalarga sodiqlik, insonparvarlik, o‘zaro yordam, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta‘minlashda milliy g‘oyaga, an‘analarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga, inson, jamiyat va atrof-muhitning o‘zaro munosabatlarini uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilishi va bu o‘quv materiallari mazmunida o‘z ifodasini topishiga erishish lozim.

2. O‘quv materiallaridan foydalanishda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tamoyili.

Boshlang‘ich sinf darsliklari yaratishda har bir o‘quv materialining o‘quvchilarga ilmiy tushunchalarni shakllantirishga yo‘naltirilishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Muammolar mohiyatini ilmiy dalillar bilan ifodalash, tabiatda va atrof-muhitda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni ilmiy tahlil eta olish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga yordam berishiga e‘tibor qaratish zarur.

3. Didaktik materiallarni yaratishning ilmiylik tamoyili.

Boshlang‘ich sinf fanlariga oid darsliklarni yaratishda o‘quv materiali mazmunidan kelib chiqqan holda, ma‘lumotlar ilmiy jihatdan asoslanishiga alohida e‘tibor beriladi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Ma‘lumotlarning pedagogik talablardan kelib chiqqan holda osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishiga e‘tibor qaratiladi. Mazkur tamoyil, o‘quv materiallari mazmunida ifodalangan bilimlarning asl manbalari mohiyatini tahlil qilish hamda ushbu jarayonda xronologik yondoshuv asosida ish ko‘rishni talab etadi.

4. Didaktik materiallarini loyihalashning tizimlilik tamoyili.

Fan asoslarini puxta o'zlashtirish uchun o'quv materiallari o'quvchilar e'tiboriga muayyan tizim asosida berilishi lozim. O'quv materiallari loyihalashni tizimlilik asosida amalga oshirishda har bir ilmiy qoida avvalgi qoidalar negizida kelib chiqadi va keyingi qoidada ilgari surilayotgan g'oya yanada rivojlantiriladi.

5. O'quv materiallarini loyihalashning tushunarliklik va qiziqarlilik tamoyili.

Fan va texnika bugungi taraqqiyoti o'quv materiallari mazmuni, uning hajmi va ifodalanishini ma'lum darajada o'zgarib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu bois mualliflar biologiya darsliklari o'quv materiallarini loyihalashda ta'limning ilmiylik tamoyilini tushunarliklik va qiziqarlilik tamoyili bilan uyg'un holda amalga oshirishlari lozim. Ya'ni, ma'lumotlarning tushunarlikligi va qiziqarliligini ta'minlash darslik materialining mazmuni, hajmi, unda o'z ifodasini topgan jumlar, savollar hamda topshiriqlarning ma'nosi aniq va tushunarli bo'lishi kerak.

6. O'quv materiallarini loyihalashning muntazamlilik va izchillik tamoyili.

Darsliklar o'quv materiallarining muntazamliligini ta'minlash muayyan mavzuga xos ilmiy tushuncha va qoidalarining avval o'zlashtirilgan mavzu mazmunidan kelib chiqishini ta'minlash va ma'lumotlarni kengaytirish borasidagi harakatni tashkil etishni nazarda tutadi.

Darsliklar o'quv materiallarini loyihalashda izchillikka rioya qilish o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tomonidan dastlab shakllantirilgan tushunchalarning yuqori sinfgacha bo'lgan davrda kengayib va boyib borishi ta'minlanadi.

7. O'quv materiallarini loyihalashning nazariya va amaliyot birligi tamoyili.

Didaktik materiallarini yaratishda nazariyani amaliyot bilan birligi tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'qitish tamoyiliga amal qilish o'quvchi shaxsiga chuqur bilim olish, turli amaliy ishlarni mustaqil ravishda bajarish, o'quv ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mehnat tarbiyasini tashkil etish imkonini beradi.

8. Uzviylik va uzluksizlik tamoyili.

Darsliklar o'quv materiallarini loyihalashda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash ta'lim tizimi turlarida o'qitiladigan fanlar mazmunida amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Ya'ni, boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan o'quv materiallari keyingi bosqich uchun asos bo'lib xizmat qilishi hamda bir-birini to'ldirib borishi lozim.

9. Ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirish tamoyili.

O'quv materiallarini ta'limning tabaqalashtirish tamoyiliga muvofiq sinf o'quvchilarining iqtidori va imkoniyatini hisobga olgan holda loyihalashni nazarda tutadi. O'quv materiallarini tanlashga tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuv iqtidorli yoshlarga ta'limning

yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental bilimlarni egallashlari uchun shart-sharoitlar yaratishni koʻzda tutadi.

10. *Oʻquv materiallarini yaratishda hayotiylik tamoyili.*

Biologiya darsliklari oʻquv materiallarini loyihalashda bevosita fan-ning mazmunidan kelib chiqib, keltiriladigan maʼlumotlar, dalillar, misollarning hayotiy boʻlishi, koʻproq kundalik hayotda uchraydigan hodisa va jarayonlar xususida soʻz yuritilishi maqsadga muvofiqdir.

11. *Oʻquvchilarni faollashtirish tamoyili.*

Darsliklar oʻquv materiallarini yaratishda oʻquvchilarni mustaqil faoliyatga yoʻnaltirish ularning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bunda maʼlum mavzularga oid mustaqil topshiriqlarni belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki belgilangan vazifalarni mustaqil bajarish jarayonida ularning bilishga qiziqishi ortadi, natijada ular faol harakat qila boshlaydi.

Xususiy tamoyillar boshlangʻich taʼlim jarayonining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ular quyidagilardir:

1. *Oʻquv materiallarini loyihalashda mahalliy materiallardan foydalanish tamoyili.*

Mustaqillik yillarida darsliklarda yoritilayotgan mavzular mazmuni milliy urf-odat, qadriyat hamda tarixiy meros mohiyatini aks ettiruvchi maʼlumotlar bilan boyitish imkoniyati tugʻildi.

Oʻquv materialini yaratishda ushbu tamoyilga rioya etish orqali tabiati, milliy mentaliteti, moddiy va maʼnaviy qadriyatlari borasida oʻquvchilarning puxta bilim egallashlari uchun qulay sharoit yaratiladi.

2. *Didaktik materiallarni yaratishda koʻrgazmalilik tamoyili.*

Boshlangʻich sinf darsliklari oʻquv materiallari mazmunini loyihalashda tasviriy materiallar asosida yoritilishi oʻquvchilarda voqea-hodisa, narsa yoki jarayon toʻgʻrisida aniq tasavvurni hosil qilish, ularning idrok etish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek bilish faolliklarini oshirish imkonini beradi.

Boshlangʻich sinf darsliklari oʻquv materiallarini loyihalashda koʻrgazmali vositalardan foydalanishni rejalashtirishda quyidagi talablarga rioya etish zarur: 1) tanlangan koʻrgazmali vositalar oʻrganilayotgan oʻquv materiali mazmunini toʻlaqonli ochib berish bilan birga oʻquvchilarning yuqori darajada faollik va mustaqillik koʻrsatishlari uchun zarur sharoitni yarata olishi; 2) koʻrgazma vositalardan oʻrinli va maʼlum meʼyorda foydalanish; 3) tizimli ravishda bir necha darsliklarda muayyan mavzuga bagʻishlangan turli koʻrgazmali qurollardan foydalanish; 4) oʻquv materiallarining koʻrgazmali vositalar yordamida ifodalanishi bilan bogʻliq holda oʻquv koʻrgazmali vositalar tizimini ham ishlab chiqish. Ogʻzaki nutq bilan koʻrgazma vositalarning

uygʻunligi asosida oʻquv faoliyatini tashkil etish taʼlim jarayonida koʻpgina murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi.

4. *Oʻquv materiallarini yaratishning modellashtirish tamoyili.*

Modellashtirish ilmiy bilishning muhim tamoyillaridan biri sifatida fanda koʻpdan buyon amal qiladi. “Model” tushunchasi XIX asrda qoʻllanila boshlaganiga qaramay, XX asrdagina ommalashdi.

Enstiklopedik lugʻatda modelga umumiy nuqtai nazaridan shunday taʼrif berilgan: ”Model (asli lat.) keng maʼnoda biror obʼekt, jarayon yoki hodisa (muayyan M. haqiqiysi) ning har qanday koʻrinishdagi xayoliy yoki shartli timsoli jumladan, tasvir, bayon, sxema, grafik, reja, xarita va boshqalar)dir”.

Model fikran tasavvur qilingan yoki mavjud aniq tizimning boshqa tizimga nisbatan maʼlum munosabatini ifodalaydi va u quyidagi shartlar asosida aks etadi:

1. Model bilan uning asli oʻrtasida oʻxshash munosabat mavjud boʻlib, modelda obʼektning shakli ochiq ifodalangan va aniq qayd qilinadi.
2. Model ilmiy bilish jarayonida oʻrganilayotgan obʼektning vazifasini oʻtaydi.
3. Modelni mohiyatini oʻrganish, haqiqiy, obʼekt borasida etarli maʼlumot olishga imkon beradi.

Modellashtirish mazmunli tamoyil boʻlish bilan birga, keng qamrovli boʻlib, quyidagi maqsadlar uchun xizmat qiladi: 1) evristik (yangi qonunlar mohiyatini tasniflash, yangi nazariyalarning tuzilishi, shuningdek, olingan maʼlumotlarni izohlashga imkon beradi); 2) hisoblash (hisoblash muammolarni modellar yordamida hal etish uchun sharoit yaratadi); 3) tajribaviy (u yoki bu modellar yordamida gʻoyalarni emperik jihatdan tekshirish muammolarini hal etishni taʼminlaydi). Modellar obʼektning mohiyatini ifodalashiga koʻra moddiy hamda fikriy (ideal) modellar kabi turlarga boʻlinadi.

Fikriy modellar oʻz navbatida obrazli (ikonik), belgili (simvolik) va maxsus obrazli-belgili kabi turlarga boʻlinadi.

Maxsus obrazli-belgili modellar sirasiga sxema, grafik, (topografik va geografik xaritalar), kimyoviy formula hamda chizmalar kiradi.

Bugungi kunda hodisalar mohiyatini tavsifli matematik simvollar yordamida ifodalovchi “belgili” modellardan keng koʻlamda foydalanilmoqda. Biror hodisa va qonuniyat mohiyatini ifodalovchi grafik, tasvir, chizma, soʻz, jadval, formula hamda simvollar shular jumlasidandir.

Belgili modellarda maxsus belgi (simvol)lar yordamida narsa yoki hodisalarning oʻzgarish jarayoni ifodalanadi. Belgili modellarda maʼlumotlarni asliga koʻchirish sxematik qoidalar yordamida amalga oshiriladi.

Muayyan ob'ektning barcha murakkabliklari bilan hech qanday soddalashtirishsiz o'rganishga urinish ancha murakkab vazifa. O'rganilayotgan ob'ektning mavjud bo'lmagan xususiyatlarini o'rganishdan voz kechish bu har qanday ob'ektni tadqiq qilish va yangi munosabatlarni aniqlashga yo'naltirilgan modellashtirishning zaruriy shartlaridan biridir. Eng asosiysi model muayyan biologik ob'ekt ishtirokida yuzaga keluvchi munosabatlarni o'quvchining ko'zi oldida gavdalantiradi. Ana shu holat aniq ob'ektning (model) yordamchi asosida ifodalanishini oqlaydi. Nazariya ham ma'lum darajada model sifatida qaraladi, ammo bilish va tafakkur qilish cheksizdir. O'quv materiallarini loyihalashda modellashtirish tamoyilidan foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantiradi. Natijada butun sinf, hatto loqayd o'quvchilar ham o'quv materialini qiziqish va o'z ixtiyorlari bilan o'rganishga kirishadilar. O'quvchining tasavvur etishi qiyin bo'lgan keng qamrovli tabiiy hodisa va jarayonlar mohiyatini anglab olishi natijasida mavhum tasavvurlari aniqlashadi.

II.2. Boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirish yo'llari va usullar

O'quv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondoshuv ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini ta'minlash bilan birga fan asoslarini o'zlashtirish sifatini ham kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiya doirasida yangi o'quv materialini o'zlashtirishning boshlang'ich, algoritmik, ijodiy va evristik xarakterdagi darajalari belgilanadi:

1). *Boshlang'ich xarakterdagi daraja* - o'quvchining eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritmik va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajarish ko'nikmasini ifodalaydi. O'quv materialini o'zlashtirishning ushbu darajasida o'qituvchining faolligi, mahorati ko'proq ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quv materialini qiziqarli, izchil bayon etishi, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi, ta'lim jarayonining bosqichlarini to'g'ri belgilay olish o'quvchilarning faoliyatini doimiy ravishda yo'naltirib boradi.

2). *Algoritmik xarakterdagi daraja*. U o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tadbiiq eta olish mahorati, shuningdek, bir turdagi masalalarni echish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini tashkil etish malakasini ifodalaydi. Ushbu darajada o'quv materialining tizimlilik, uning mazmunini osondan qiyinga tomon murakkablashib mavzu va fanlararo aloqalarning ta'minlanishi, takrorlashlar hamda ko'rgazmalilik alohida ahamiyatga ega.

3). *Ijodiy xarakterdagi daraja*. Ushbu daraja o'quv material, shuningdek, ilgari o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni turli holatlarda tadbiiq eta olish, mahoratini ifodalaydi. Bunda o'quv materiallarini o'zlashtirishda izlanishga undash, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirib borishga e'tibor berish va bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish muhim o'rin tutadi.

4). *Evristik xarakterdagi daraja*. U taqdim etilgan o'quv masalalarining echimlarini izlash hamda ularni echish uchun yangi axborotlarni mustaqil tarzda izlab topish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan tavsiflanadi. Ushbu darajada o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilib borishga yo'naltirish hamda iste'dodni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib, o'quv materiallarini didaktik loyihalashga nisbatan pedagogik texnologiya asosida yondashuv quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- o'quv materiallari pedagogik texnologiya asosida ta'lim-tarbiya jarayonini izchil tashkil etish uchun loyihalanadi va belgilangan o'quv faoliyatini amalga oshirish uchun qo'llaniladi;
- dars pedagogik texnologiya talablariga muvofiq o'quv materiallarini o'zlashtirishning aniq maqsadini belgilaydi;

- darslik materiallari mazmuniga pedagogik ishlov berish jarayoni amalga oshiriladi;
- o'quv materialining didaktik vazifasi belgilanadi;
- o'quv materiallarini taqdim etishning shakl, usul va vositalari aniqlanadi;
- o'quv materiallarining mazmunini o'zlashtirish darajasi va kafolatlangan yakuniy natija ishlab chiqiladi.

Demak, o'quv materiallarini loyihalashni didaktik va metodik jihatdan takomillashtirish, ta'lim jarayoniga tadbiq etish uchun o'qituvchi tomonidan unga ikkilamchi ishlov berish amalga oshiriladi, ya'ni, o'quv jarayoni loyihalanadi. O'quv materiallarini loyihalashda o'quvchilar faolligini oshirishga alohida e'tibor berish zarur. Bu vazifani ayni vaqtda ta'lim amaliyotida keng qo'llanayotgan interfaol metodlar yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikdagi faoliyatlari (barcha didaktik omillar ta'sirida) faqatgina qat'iy va anglangan vaqt oralig'idagina ta'minlanadi. Ayrim hollarda o'qituvchi o'rganilayotgan materialni bayon qilishda ushbu mavzuda yoritilayotgan ma'lumotlarning fan, texnika, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy hayotlaridagi ahamiyatini ochib berish bilan chegaralanadi. Boshqa hollarda o'qituvchi matn bayonini muammolarni qo'yish bilan boshlashi va o'quvchilardan muammo echimini izlanishni talab qilishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim vositalari sifatida o'quv matnlari asosiy o'rinni egallaydi. O'quv matnlari ayni vaqtda ta'limning yangi vositalarida (elektron darsliklar, videofilmlar, audio darslar, audio va videokassetalar, videodisk va boshqa axborot texnologiyalari) ifodalanmoqda.

Boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan elektron darslik - muayyan fan yoki uning biror bo'limini kompyuter yordamida mustaqil yoki o'qituvchi hamkorligida o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan dastur-metodik majmuadir.

Elektron darslikda fan mazmuni quyidagicha ifodalanadi: o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida; o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklida; multimedia qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishida, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida; taktil (his qilinuvchi) xususiyatli, biror jarayonning amalga oshirish faoliyati yoki ob'ektning harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Videofilm – boshlang'ich ta'lim o'quv kursining biror bo'limi yoki mavzusini oynaijahon orqali ko'rsatishga moslashtirilgan videotasvir asosida yaratilgan metodik vosita hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limdan *audio darslarni* ishlab chiqish o'quvchilarga ta'lim mazmunini o'zlashtirish, atrof-muhitga hissiy-qadriy munosabatni tarkib toptirishga mo'ljallangan metodik vositani yaratishdir.

Audio darsni ishlab chiqish aniq ifodalangan “personajli” xarakterga ega bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun, ayniqsa, syujetli, rolli o‘yin texnologiyalari asosida o‘simlik, hayvon personajlarini yaratish, material mazmunini ochib berishda personajlarining ovozlari o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun bir-biridan farqli bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga materialni eshittirish orqali ular tomonidan mavzu mazmunini bimalol tushunishlariga imkoniyat yaratiladi.

Audio va videokassetalar, videodisklarda o‘quv materiallari joylashtirilib, o‘quvchilarning alohida yoki jamoaviy qo‘llashlari uchun o‘quv xonalariga qo‘yiladi. Jamoaviy foydalanilgan holda, o‘quvchilar orasida muloqot va muhokama etish imkoniyati ham mavjud.

Darsliklar o‘quv materiallarining mazmuni va metodik strukturasi qanchalik mukammal, to‘g‘ri, ilmiy asoslangan (yangi pedagogik texnologiyaga rioya qilingan) va amaliyotda tekshirib ko‘rilgan bo‘lsa, o‘qituvchining kafolat bilan yuqori samarali dars berishi shunchalik aniq bo‘ladi. Mazkur o‘rinda o‘qituvchining kasbiy mahorati, u tomonidan dars loyihasi hamda o‘quv materiallarini tarkiblashtirish shakl, metod va vositalarining to‘g‘ri tanlay olishi ham muhim o‘rin tutadi. O‘quv faoliyatini boshqarish, o‘quvchilarning o‘quv materiallarini DTS talablari darajasida o‘zlashtirishlari, shuningdek, ularning bilish tafakkurini kengayishida o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, ijodiy izlanishi, o‘quv jarayonini loyihalash va uning bosqichlarini to‘g‘ri belgilay olishi katta ahamiyatga ega.

Dars jarayonida o‘quvchilar diqqatini yo‘naltirishga imkon beradigan muammoli vaziyatlarning yaratilishi, muammoning qo‘yilishi, avval o‘rganilgan materiallarni eslash, yangi material mazmunida ilgari surilayotgan asosiy g‘oyalarni mustaqil ravishda ajratish, ziddiyatlarni oqilona hal etish va ularning ijodiy izlanishga undash mavjud imkoniyatlarning kengayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mustaqil faoliyatni tashkil etish va o‘quvchilar harakatini boshqarish o‘qituvchining o‘quv materiali mohiyatini mantiqiy tahlil qilishdan boshlanadi. Shu tarzda o‘qituvchi bir soatlik dars loyihasini ishlab chiqadi. Dars loyihasini ishlab chiqishda uning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, ketma-ketlik, uzviylik, darsning aniq maqsadi, o‘quv materialining mazmuni, o‘quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari hamda maktab sharoiti hisobga olinadi.

O‘rganiladigan tabiiy hodisalar, nazariya, qonun va jarayonlarning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntirishda fanlararo uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash o‘quv materiallarini yuqori darajada o‘zlashtirishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf darsliklari o‘quv materiallari tarkibining mantiqiy izchilligi uni tashkil etgan tushuncha va fikrlarning ichki aloqalarini ochib beradi. O‘quv materiallarini loyihalash o‘quvchilarga mavzular doirasida yoritilayotgan asosiy tushuncha va fikrlarni ajrata olish, ular o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarni aniqlashga yordam

beruvchi topshiriqlarning vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda bilimlarni uzoq muddat esda saqlab qolishlariga yordam beradi.

Shu sababli tadqiqotni olib borish jarayonida boshlang'ich sinf darsliklari o'quv materiallarini loyihalashning didaktik va metodik asoslarini zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan uyg'unlashtirgan holda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratdik.

Yuqorida qayd etilganidek, o'quv materiallarini loyihalashga nisbatan pedagogik yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini ta'minlash hamda o'zlashtirish sifatini oshirishga yordam beradi, shuningdek, o'quv jarayonining samaradorligini kafolatlaydi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quv materiallarini loyihalashda ta'lim texnologiyalarining muammoli, kompyuterli, modulli, mantiqiy-mazmunli, hamkorlikda o'qitish, shuningdek, o'yin texnologiyalari keng qo'llanilmoqda.

Didaktik mazmunga ega bo'lgan o'yin texnologiyalari. Ushbu texnologiya yordamida boshlang'ich ta'lim jarayonini loyihalash mazmunida o'quv materiallari o'quvchilar ongiga o'yin faoliyati asosida singdiriladi.

II bob bo'yicha xulosa

1. Boshlang'ich ta'lim jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallarni yaratish jarayoni umumdidaktik va xususiy tamoyillar asosida tayyorlanishi lozim bo'lib, ushbu tamoyillar asosida tayyorlangan didaktik materiallar o'quvchilar tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi.

2. Didaktik materiallar asosida o'quv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondoshuv ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini ta'minlash bilan birga fan asoslarini o'zlashtirish sifatini ham kafolatlaydi.

3. Pedagogik texnologiya doirasida yangi o'quv materialini o'zlashtirishning boshlang'ich, algoritmik, ijodiy va evristik xarakterdagi darajalari belgilanadi.

III BOB. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN TAJRIBA- SINOV ISHLARI

III.1. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallarga quyiladigan talablar

Jamiyatimizning barcha jabhalarida qayta qurish bo‘lgani kabi ta‘lim-tarbiya sohasida ham qayta qurish, yangilanish zarurligi namoyon bo‘lib bormoqda. Mustaqillik va ta‘lim sohasidagi islohotlar ta‘lim jarayoni uchun tavsiya etiladigan didaktik materiallarni zamon talablari asosida tubdan qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy shakllarini yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy didaktik materiallar qanday bo‘lishi kerak ekanligi borasida qator didakt olimlar izlanishlar olib borishmoqda. Ushbu paragrafda zamonaviy darslik, o‘quv qo‘llanmalar va ikkilamchi didaktik materiallarga quyiladigan talablarni tahlil qilamiz.

Darslik o‘quvchilarning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturida belgilab berilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni faol va ongli suratda o‘zlashtirishga yordam beruvchi, o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan asosiy vosita hisoblanadi. Maktab darsligi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- davlat ta‘lim standartlariga mos kelish;
- o‘quvchilarning bilim olishiga yordam berishi;
- o‘quvchilarda mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- o‘zlashtirilgan bilimlarning kundalik turmush amaliyoti bilan bog‘lash;
- o‘quvchilarni shu fan bilan bog‘liq ravishda kasbga yo‘naltirish;
- ta‘lim va tarbiyani o‘zaro chambarchas bog‘lash;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash;
- boshqa fanlar bilan uyg‘unlashish (integratsiya);
- fanga oid etarli miqdordagi ma‘lumotlarni o‘zida mujassamlashtirish;
- ta‘lim olishning turli uslublarini o‘zida mujassamlashtirish;
- o‘quvchiga o‘z-o‘zini yoki o‘qituvchiga o‘quvchilar bilimini baholash va nazorat qilish imkoniyatini yaratish.

Darslik fan asoslarini hayot bilan, kundalik turmush bilan o‘zaro bog‘lanishini amalga oshirishi, hozirgi zamonning, tabiat va jamiyatning bosh muammolarini tushunishda o‘quvchilarga ko‘maklashishi hamda ularning bilish va ijodiy izlanish qobiliyatlarini

rivojlantirishi lozim. Shuningdek, o'quvchilarda o'z bilimlarini uzluksiz takomillashtirish va mustaqil bilim olishni davom ettirish imkoniyatlarini ochishga yordam berishi kerak.

Boshlang'ich sinf darsligining mazmuni quyidagi talablar asosida belgilanishi tavsiya etiladi:

- buyuk kelajakni quruvchi, yuksak ma'naviyatga ega barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilishi;
- umuminsoniy qadriyatlarni, yurtimizga xos sharqona voqelikni, milliylikni o'zida mujassamlashtirishi;
- mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, vatanparvarlik hislarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi;
- darslik mazmunida milliy g'oyalarning singdirilganligi;
- ilmiy va amaliy ahamiyatga molik nazariy ma'lumotlar, qonun-qoidalar va tushunchalarning bo'lishi;
- fanlararo bog'lanishda takrorlashning oldini oladigan, parallel va mantiqiy, izchil ketma-ketlikka asoslangan uyg'unlikning bo'lishi;
- o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishi;
- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tushunchalar bo'lishi;
- darslikda keltirilgan material dasturga mos va o'quv rejada ajratilgan soatlarda o'rganishga mo'ljallanganligi;
- qo'llaniladigan atamalar, tushunchalarning ta'riflari, qonun-qoidalarining ifodalari, hodisalarning izohlari fan bo'yicha amalda qabul qilingan va ommalashgan atamalarga mos bo'lishi;
- respublikamiz tabiati, ijtimoiy-siyosiy sohadagi salohiyati va yutuqlarini yoritishi.

Elektron darsliklar ham darslikka qo'yilgan talablarga to'liq javob berishi lozim. Bundan tashqari yana

- ma'lumotlar chizmalar, rasmlar, suratlar orqali berilishi;
- darslik qisman animastion tasvirlar orqali ifodalanishi;
- har bir tasvir tovushlar orqali tahlil qilinishi;
- ma'lumotlar modulli ta'lim texnologiyasi asosida loyihalashtirilishi;
- o'quvchilar mustaqil ishlashlari uchun topshiriqlar tizimi berilishi;
- o'quvchilarning savollarga beradigan javoblari yoki bajarilgan topshiriqlar natijalari tegishli baholanishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'lim jarayoni tashkil etishga metodik yordam sifatida nashr qilinadigan **qo'llanmalar** quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- qo'llanma darslik mavzulariga to'raligicha mos va ishlatishga qulay bo'lishi;
- har bir mavzu bo'yicha o'qitish metodlari aniq bayon etilgan bo'lishi hamda maqsadlar aniq bo'lishi;

• qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlar ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi va o'quvchilarni baholash uchun topshiriqlar tizimi keltirilishi;

- material mazmuni aniq va ravon bayon etilishi;
- qobiliyatli o'quvchilar uchun etarli darajada qo'shimcha materiallar berilishi;
- fanga tegishli metodlar, texnologiyalar bilan to'ldirilishi.

Didaktik materiallarning ikkilamchi loyihalari sirasiga kiradigan **dars loyihalari** quyidagi talablarga javob berishi lozim bo'ladi:

- dars maqsadining aniq belgilanishi;
- maqsadga erishi yo'llari (vazifalar) to'g'ri belgilanishi;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlari, vaqt va boshqa imkoniyatlarni inobatga olish;
- o'quvchilarni faollashtirishga yo'naltirish.

Ko'rgazmali qurollarning tabiiy materiallar, illyustratsiyalar, chizmalar, video va audio materiallar kabi turlari mavjud bo'lib, ular quyidagi talabalarga javob bergandagina ta'lim jarayonida foydalanishga yaroqli hisoblanadi:

- o'quv materiali mazmuniga mos bo'lishi;
- o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi;
- asosiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi;
- rang baranglik va xilma-xillikka e'tibor qaratish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan **o'quv topshiriqlar tizimi** test topshiriqlari, tarqatma materiallar, o'yin topshiriqlari kabi shakllarda qo'llaniladi va ularni tayyorlashda quyidagi talablar inobatga olinadi:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va o'quv materiali mazmuniga mosligi;
- vaqt va foydalanish imkoniyatlarini inobatga olish;
- o'quvchilar tafakkurini o'stirishga va ta'lim samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilganligi;
- o'quvchilarning katta qismini jalb etish.

Ta'limning an'anaviy usuli hozirgi kun talablarini qondirmay qo'ydi. Shu bois «Zamonaviy dars qanday bo'lmog'i kerak?» degan savol tug'iladi. Bu savol keyingi kunlarda ko'pchilik o'qituvchilarni qiziqirmoqda.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning sifati, samaradorligi butkul o'qituvchi zimmasiga, uning izlanuvchanligi, fidoiyligi, o'z mas'uliyatini qay darajada xis etishiga bog'liq bo'lib qoldi. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zi o'qitayotgan sinf o'quvchilari o'quv yili yakunida fanlardan egallashlari lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar mezoni talablari darajasida bilim, malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishiga erishishi kerak. Shunday ekan darslarni qanday usul bilan olib borish masalasini o'qituvchi ehtiyoriga berish ma'qul, deb bilamiz. Lekin o'qituvchi aniq maqsad bilan faol va fidokorona mehnat qilishi, darsning har bir bosqichiga mas'uliyat bilan yondoshmog'i lozim. Shuningdek, o'quvchilarga puxta bilim berish va darsning samaradorligini oshirish uchun unga ijodiy va yangicha yondoshib, zamonaviy darslar tashkil qilmog'i kerak. Oshkor aytish mumkinki, hozirgi kundagi darslarimiz kundan-kunga bolalarimizni zeriktirib qo'yadigan tartibda olib borilyapti. Ko'pgina o'qituvchilar hanuzgacha darsni tashkil etish, o'tilgan mavzuni takrorlash va o'quvchilar bilimini baholash, yangi mavzuni bayon etish, uni mustaxkamlash va uyga vazifa topshirish bilan chegaralanib kelmoqdalar. Bunday dars hozirgi kun talabiga mutlaqo javob bermaydi. Bolalarimiz faqatgina tinglovchi bo'lib qolmoqdalar. Tayyor bilimlar o'qituvchi tomonida o'quvchilarga bayon etilmoqda. Ammo «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da kadrlar tayyorlashning milliy modelini belgilashda birinchi o'ringa shaxs qo'yiladi. Bunda asosan o'quvchi shaxsi qolaversa o'qituvchi shaxsi, rahbar shaxsiga yangicha yondoshish, yangicha talablar ko'zda tutiladi. «Ta'limdan asosiy maqsad, bolalarga ilgarigidek bilim berish emas, ularni bilim olishga o'rgatishdir. Bunda o'quvchilar paseiv tinglovchi bo'lib qolmay, balki bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishlari kerak. Bu demakki, o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabati va bilim olish jarayonidagi ruhiy holati tubdan o'zgarishi lozim. Yurtboshimiz nutqlarida ta'kidlaganlaridek, «o'quvchi-o'qituvchi munosabatidagi majburiy itootkorlik o'rnini ongli intizom egallashi» kerak. Shundagina mustaqil davlatimiz uchun erkin fikrlaydigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan kadrlar etishtirishimiz mumkin». («Til va adabiyot ta'limi» jurnali 1998 yil 1-son 18-bob jurnal tahririyatining Jo'ra G'anievich Yo'ldoshevga murojaat etib savollariga olgan javoblaridan).

Demak dars jarayonida o'quvchini faollashtirish, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan qilib etishtirish lozim. Hozirgi kunda o'qituvchilardan talab etilayotgan narsa, o'quvchilarni faolligini kuchaytirish, chunki faollik bor joyda onglik bo'ladi.

Darslarni zamonaviy usulda tashkil etish uchun bir qator metodik va pedagogik talablarga qattiq rioya qilish lozim. Birinchi navbatda o'qituvchi nazariy va metodik tomondan yaxshi qurollangan va o'z kasbining jon kuyar fidoiysi bo'lmog'i kerak. Ikkinchidan esa, estetik did bilan ma'lum bir tizimda ishlangan ko'rgazmali qurollar va tarqatma didaktik materiallarga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, o'zi o'qitayotgan sinf o'quvchilarini o'z farzandi mehri bilan sevishi va o'z oldigan yosh avlodni kelajakning etuk hamda barkamol avlodi etib tarbiyalashdek murakkab va masuliyatli vazifa turganini unutmasligi kerak.

Keyingi yillarda ijodkor o'qituvchilar bolalarning qayerda toliqib qolishlarining oldini olish, ularni o'qishga, ilm olishga qiziqtirish maqsadida turli usullardan foydalanib kelmoqdalar.

Ma'lumki bola maktabga kelganga qadar asosan o'yin bilan mashg'ul bo'lgan. Ularda chaqqonlik, ziyraklik, hozirjavoblik, sinchkovlik, epchillik kabi ijobiy xislatlar kurtak ota boshlagan, lekin hali etilmagan bo'ladi. Muttasil o'yin bilan mashg'ul bo'lgan bolaning faoliyati endilikda o'zgaradi. Kechagi o'yin bilan mashg'ul bo'lgan bola endilikda 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir erga to'plab, talabga rioya qilgan holda o'qituvchi bilan faoliyatda bo'ladi, bilim oladi, mushohada qiladi. Bu bola uchun juda murakkab jarayondir. Uqituvchi yana shunday vaqtda o'quvchilarni o'quv mashg'ulotlariga qiziqtirish yo'llarini topishi o'z ishiga ijodiy yondoshuvi lozim.

O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, tafakkurini rivojlantirishda noan'anaviy dars turlarini qo'llash yaxshi natija beradi. Bunday darslarning oddiy darslardan farqi shundaki, o'qituvchi darsni o'yin tariqasida tashkil etadi va bolalarni hayolan turli olamga, ertaklar olamiga, kosmas va hatto marsga ham olib chiqishi mumkin. Masalan, «ertaklar olamiga sayohat», «marsga sayohat», o'yin, munozara (savol-javob), mushohada bellashuv sahnalashtirilgan uyg'unlashgan, test-sinov kabi dars shakllari noan'anaviy darslar jumlasiga kiradi. Bunday dars darslikda berilgan katta bo'lim materiallari o'rganib bo'lingach, chorak (yil) oxirlarida egallangan bilimlarni takrorlash, mustaxkamlash maqsadida o'tkazilishi ham mumkin. Bunday noan'anaviy darslar, albatta, qiziqarli o'tadi. Uquvchilarning diqqati tarbiyalanadi. O'yin faoliyati tobora jiddiy tus olib, mashg'ulot (dars) bilan almashinadi, ya'ni topshiriqlar, suhbatlar, savshl-

javoblar asta-sekin murakkablashib boradi. Bazan darsda o'quvchilarni mustaqillikka, ijodkorlikka yo'naltirish maqsadida juda ko'p ish turlaridan foydalangan holda darslar tashkil etiladi. Bunday hollarda dars strukturasi buziladi. Ana shu dars strukturasi buzilishi noan'anaviy dars demakdir. Demak noan'anaviy dars-dars strukturasi buzilishi. Quyida biz 3-sinfda grammatika va imlo yuzasidan bir soatlik o'yin darsini ko'rib o'tamiz.

Mavzu: tovushlar va harflar.

Maqsad: 1. O'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash.

2.O'quvchilarning imlo malakalarini mustahkamlash.

3.Fikrlash malakalarini o'stirish, chaqqonlik, ziyorlik, topqirlik va jamoatchilik tuyg'ularini tarbiyalash.

Darsning jihozi: 1. Harf va so'z plakatlari.

Dars turi: musobaqa - bellashuv.

Darsning borishi.

Dars tashkil etilib, uy vazifasi tekshiriladi va hulosasi qilinadi.

O'qituvchining kirish so'zi: bugungi darssimz musobaqa-bellashuv-darsi. Biz bugun «tovushlar va harflar» bo'limi bo'yicha egallagan bilimlarimizni o'yin bilan takrorlab mustahkamlaymiz. Hozir sizlar uch guruhga bo'linasizlar:

I-qator-birinchi guruh-Topqirlar guruhi.

II-qator-ikkinchi guruh-Chaqqonlar guruhi.

III-qator-uchinchi guruh-Ziyorlar guruhi nomini oladi», - deb guruhlar nomi doskaga yozib qo'yiladi. Uyin qoidasi tushuntiriladi.

O'yin uchun birinchi topshiriq. (Har uch guruhga bir xil topshiriq beriladi. Lekin topshiriq asosida bajariladigan ish uchun so'zlar bir - biridan farq qiladi).

So'zlarni alfavit tartibida yozing. (Har 3 guruh uchun 6-8 tadan so'zlar oldindan do'skaga yozib usti to'sib qo'yilgan bo'lishi yoki karton qog'ozga yozib tayyorlangan bo'lsa osib qo'yilishi mumkin).

Topqirlar guruhi	Chaqqonlar guruhi	Ziyorlar guruhi
Kitob	Olma	Sabzi
Daftar	Anor	Piyoz
Qalam	O'rik	Sholg'om
Ruchka	Bexi	Lavlagi
Chizgich	Limon	Kartoshka
bo'r	Xurmo	turp

Topshiriqni bajarish uchun vaqt ajratiladi. Bunda topshiriq materialining ko‘p yoki ozligi hisobga olinadi.

Topshiriqni bajarish uchun har qaysi guruhdan o‘quvchilar navbat bilan chiqib, so‘zlarini alfabit tartibida yozadilar. O‘yinni o‘qituvchi va guruh sardorlari kuzatib boradilar. Guruhlar vazifani belgilangan vaqt ichida to‘g‘ri va hatosiz bajarganlariga qarab ish (o‘yin) baholanadi. (To‘g‘ri xatosisiz belgilangan vaqtda bajargan guruh uchun qizil bayroqcha, birgina xato bilan ishni o‘z vaqtida bajargan guruh uchun sariq bayroqcha, ikkita xato bilan bajargan guruh uchun yashil bayroqcha beriladi).

Ikkinchi topshiriq

Bo‘sh kataklarga lozim bo‘lgan harflarni qo‘yib, so‘zlar tuzing.assa, hassa, zarra, marra, katta, latta, xissa, kissa, karra, barra. bitta, patta.

Bu topshiriqning bajarilishi ham izohlab baholanadi.

Uchinchi topshiriq. (kartochkada).

Birinchi qatorga jarangli undoshlarni, ikkinchi qatorga jarangsiz undoshlarni yozing.

Jarangli undoshlar: _____

Jarangsiz undoshlar: _____

Mazkur topshiriq har uch guruhning sardorlariga kartochkalarida mustaqil bajarish uchun beriladi va vaqt belgilanadi. Vaqt tugagach, ishlar yig‘ib olinadi. Bu vaqtda guruhlarda ishlar (o‘yin) davom etaveradi. Sardorlarning ishi o‘yin ohirida tekshirilib, ularga berilgan baho sardorning o‘z guruhida to‘plangan ballariga qo‘shib beriladi.

To‘rtinchi topshiriq.

Nuqtalar o‘rniga lozim bo‘lgan harflarni qo‘ying.

Roha...	Muro...	Ozo...
Maqsa...	Kamola,;.	Bax...
Kvadra...	Qan...	Umi...
Xursan...	Oma...	Limona...

Beshinchi topshiriq.

So‘z oxiridagi undosh harfni boshqa undosh bilan almashtirib bir nechta yangi so‘zlar hosil qiling.

1-guruhga	2-guruhga	3-guruhga
Bog‘	Tuz	Tog‘

Oltinchi topshiriq.

Ketma-ket kelgan bir xil undosh soʻzlar ishtirok etgan maqol va topshiriqlardan ayting.

Avvalo maqollar aytiladi: Sanamay sakkiz dema. Etti oʻlchab bir kes. Kattaga hurmatda boʻl kichikka izzatda. Bilim bilan hikmat-oltindan qimmat.

Soʻngra topishmoqlar aytiladi: Ikki aka-uka yashaydi, bir-birini koʻrmaydi. Qor emas oppoq, yung emas yumshoq. Tilla sandiq ochildi, ichidan zar sochildi. Qora tovuq qaqillaydi, qanotlari shakillaydi. Pak-pakana boʻyi bor, etti qavat toʻni bor. (Javoblar: koʻz, paxta, quyosh, tikuv mashinasi, piyoz).

Guruhdagi oʻquvchilarning javoblariga qarab ballar (bayroqchalar) beriladi. Har qaysi guruhning umumiy toʻplagan ballari aniqlanadi. Qaysi guruh koʻproq ball toʻplagan boʻlsa, oʻsha guruh gʻolib hisoblanadi.

Dars tugashiga 4-5daqqa qolganda dars yakunlanadi. Buning uchun oʻqituvchi oʻquvchilarga savol beradi: Biz bugun qaysi mavzular yuzasidan bellashuv olib bordik? Oʻquvchilar: «Alfavit», «Ketma-ket kelgan bir xil undoshli soʻzlar», «Soʻzlar oxirida talaffuz qilinmaydigan undoshlar», «Soʻz oxiridagi jarngli undoshlarning jarngsizlanishi», «Jarangli va jarangsiz undoshlar» mavzulari yuzasidan bilimlarimizni oʻyin orqali takrorlab, mustahkamladik. Mana shu mavzularni qaysi boʻlim oʻz ichiga oladi?

Bu mavzularni «Tovushlar va harflar boʻlimi» oʻz ichiga oladi. Oʻqituvchi oʻquvchilarning javoblarini umumlashtiradi va darsni yakunlaydi.

Oʻquvchilar bilimiga baho qoʻyish oʻqituvchi har qaysi guruhdan oʻyinda faollik koʻrsatgan va toʻgʻri javob bergan, oʻyin qoidasini buzmagani 3-4 tadan oʻquvchi bilimini baholaydi. Qolgan oʻquvchilar ogʻzaki ragʻbatlantiriladi.

III.2. Didaktik materiallarni takomillashtirish metodikasi asosida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlili va tavsiyalar

Boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanish holatini o'rganish va didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirishga doir ishlab chiqilgan metodikani sinovdan o'tkazish maqsadida Qarshi shahridagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida va Qarshi tumanidagi - umumiy o'rta ta'lim maktabida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba-sinov ishlari davomida 24 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan anketa so'rovlari o'tkazdik, 18 soat dars mashg'ulotlarini kuzatdik.

Kuzatishlarimiz natijasida boshlang'ich sinflarda didaktik materiallardan foydalanishning amaliyotdagi ahvolini o'rgandik. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib ular tafakkurini o'stirish va dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ko'rgazmali qurollardan keng foydalanishlarini, ammo o'qituvchilar o'z ustilarida ishlash va mahoratlarini o'stirishda boshqa qo'llanmalardan talab darajasida foydalanmasliklari ayon bo'ldi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik materiallardan foydalanish darajalarini so'rovlar natijasida aniqladik va uni diagrammada ifodalaymiz.

Dastlab, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining birlamchi didaktik materiallar, ya'ni darslik, elektron darslik hamda o'quv qo'llanmalardan foydalanish darajalarini aniqladik. Darsliklar, nafaqat o'quvchilar, balki boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ham muhim manba vazifasini o'taydi (100%). Shuningdek, o'quv qo'llanmalardan ham ko'pgina o'qituvchilar foydalanadilar (45,9 %). Ammo zamonaviy didaktik material bo'lmish elektron darsliklar hali boshlang'ich ta'lim metodikasiga chuqur kirib kelmaganligini kuzatishimiz mumkin. Atigi 5% boshlang'ich sinf o'qituvchisigina ushbu didaktik materialdan foydalanishlari ma'lum bo'ldi.

3.2.1-chizma


Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darsliklardan foydalanish darajalari



Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ikkilamchi didaktik materiallardan, ya'ni dars loyihasi, tabiiy ko'rgazmalar, video va audio materiallar, test topshiriqlari, tarqatma materiallar va o'yin topshiriqlaridan foydalanishlar darajalarini o'rgandik. Natijaga ko'ra o'qituvchilar 62 % holatda dars loyihasidan, 36 % holatda tabiiy ko'rgazmali materiallardan, 9 % holatda video va 12 % holatda audio materiallardan, shuningdek, test topshiriqlaridan (34 %), tarqatma materiallardan (56 %) va o'yin topshiriqlaridan (58 %) foydalanishlari ma'lum bo'ldi.

3.2.2-chizma

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ikkilamchi didaktik materiallardan foydalanish darajalari



Anketa so'rovlari jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari didaktik materiallarni o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi, rang-barang bo'lishi bilan birgalikda, o'quvchilarni faollikka, bahs-munozaraga va ijodiy fikrlashga undashi lozimligini ta'kidlab o'tdilar. Tajriba-sinov ishlari boshida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslarini kuzatdik va ularning didktik materiallardan foydalanish holatlari zamon talablari darajasida emasligini aniqladik. Bunday holatda boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajalari qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida test sinovlari o'tkazdik. Test sinovlarida 1-sinfdan jami 57 (nazorat guruhidan -28, tajriba guruhidan - 29) nafar, 2-sinfdan jami 62 (nazorat guruhidan -30, tajriba guruhidan-32) nafar, 3-sinfdan jami 63 (nazorat guruhidan – 31, tajriba guruhidan – 32) nafar, 4-sinfdan 59 (nazorat guruhidan – 30, tajriba guruhidan - 29) nafar o'quvchi ishtirok etdi. O'quvchilarga 10 tadan test savollari tarqatildi va har bir to'g'ri javob uchun 1 ball belgiladik. Ularning bilimlarni o'zlashtirish darajalarini quyidagi mezonlar asosida aniqladik:

Yuqori daraja: 8 – 10 ball;

O'rta daraja: 5 – 7 ball;

Quyi daraja: 1 – 4 ball.

Tajriba avvalidagi natijalar quyidagi jadvalda ifodalangan:

3.2.1-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tajriba avvalidagi bilimlarni o'zlashtirish darajalari

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi	Tajriba sinfi
1-sinf	8	9	12	12	8	9
% hisobida	28	30	44	40	28	30
2-sinf	7	9	13	12	10	11
% hisobida	23	28	43	38	34	34
3-sinf	9	8	12	13	10	11
% hisobida	30	25	38	41	32	34
4-sinf	9	9	13	11	8	9
% hisobida	30	31	43	38	27	31

Tajriba-sinov ishlari davomida boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan hamkorlikda dars ishlanmalari va har bir dars uchun didaktik materiallar tizimini ishlab chiqdik. Ushbu didaktik materiallardan foydalangan holda boshlang'ich sinflarda darslar tashkil etdik. Didaktik materiallarni tayyorlashda ularning dissertatsiya 3.1-paragrafida ko'rsatib o'tilgan talablarga javob berishiga alohida e'tibor qaratdik. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu didaktik materiallardan bajanodil foydalandilar va ularga ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam berganligini alohida ta'kidladilar.

Xilma-xil didaktik materiallardan foydalanib tashkil etilgan ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari ham faol ishtirok etdilar. Ularning bilim olishga va oldilariga qo'yilayotgan ta'limiy muammolarni hal etishga bo'lgan qiziqishlari ham oshdi. Didaktik o'yinlar davomida o'quvchilarning deyarli 100 foiz ishtirok etdilar. Qisqa muddat davomida bir qancha o'quv materiallarini o'zlashtirishlari va bir qancha o'quvchilar bilimini sinab ko'rish uchun imkoniyat yaratildi. Ta'lim jarayoni qiziqarli tashkil etildi va o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham bunday dars mashg'ulotlari ularni zeriktirmaganligi va charchatmaganligini ta'kidladilar.

Tajriba ishlari olib borilgach o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajalarini yana bir bor sinovdan o'tkazdik. Tajriba-sinov ishlari samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba avvalidagi va tajriba yakunidagi natijalarni qiyosiy tahlil qildik:

3.2.2-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish darajalari

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1-sinf o'quvchilari	8	9	12	12	8	9
<i>Tajriba avvalida</i>						
<i>Tajriba yakunida</i>	9	12	13	15	6	2
2-sinf o'quvchilari	7	9	13	12	10	11
<i>Tajriba avvalida</i>						
<i>Tajriba yakunida</i>	8	13	15	17	7	2
3-sinf o'quvchilari	9	8	12	13	10	11
<i>Tajriba avvalida</i>						

<i>Tajriba yakunida</i>	9	11	15	18	7	3
4-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	9	9	13	11	8	9
<i>Tajriba yakunida</i>	10	12	15	16	5	1

Ushbu natijalarning tahlilini foiz hisobidagi raqamlarda ifodalaymiz:

3.2.3-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish darajalari (foiz hisobida)

Sinflar	Yuqori daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	28	30	44	40	28	30
<i>Tajriba yakunida</i>	32	41	47	52	21	7
2-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	23	28	43	38	34	34
<i>Tajriba yakunida</i>	27	41	50	53	23	6
3-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	30	25	38	41	32	34
<i>Tajriba yakunida</i>	29	34	48	56	23	10
4-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	30	31	43	38	27	31
<i>Tajriba yakunida</i>	33	41	50	55	17	4

Ushbu natijlardan ko‘rinadiki, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan didaktik materiallar zamonaviy bo‘lib, u nafaqat o‘quvchilar bilimlarini o‘stirishga, balki ular tafakkurini o‘stirishga ham xizmat qiladi.

III bob bo‘yicha xulosa

1. Har bir mashg‘ulot uchun tayyorlanayotgan didaktik materiallar individual xarakterda bo‘lishi, ya’ni har bir mashg‘ulot mazmuni, o‘quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari hamda vaqt imkoniyatlarini inobatga olgan haolda tayyorlash lozim.
2. Didaktik materiallarni tayyorlashda yuqorida ishlab chiqilgan talablarga e’tibor qaratish ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.
3. Tajriba-sinov ishlari davomida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda o‘quvchilarning xilma-xil didaktik materiallarda foydalanishga bo‘lgan qiziqishlari yuqori ekanligi aniqlandi.
4. Didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirish uchun o‘quv qurollari bilan birgalikda bir necha marta foydalanishga mo‘ljallangan didaktik materiallar tizimini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish o‘qituvchilar uchun juda muhim yordam bo‘ladi.

XULOSALAR

Jamiyatimizdagi bo'layotgan katta o'zgarishlar o'qitish metodikasiga nazariy va amaliy jihatdan o'zgarishlar kiritib, davr talabiga mos darsni tashkil qilishni talab etmoqda. Shuning uchun ham, taniqli olimlar bilan metodistlar, ijodkor o'qituvchilar bugungi dars qanday bo'lishi kerak, oldingi shakllangan darsdan nimasi bilan farq qilishi lozim - degan savolga javob qidirishmoqda. Maktabdagi ta'lim-tarbiya borasida ham endilikda maqsad o'zgardi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» ishlanib chiqildi, shunga mos xalq ta'limi sohasida bir qancha o'zgarishlar kiritildi. Shundan kelib chiqib, o'quv tarbiya jarayonining mazmuni ham yangilandi. Umumiy o'rta ta'limning davlat standarti, yangi pedagogik texnologiya ishlanib, hayotga tadbiiq etildi.

Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga, o'quv jarayonini tashkil etishga e'tibor ko'chaydi. Biroq jamiyatdagi shaxslarning bunday holatlarga hali tayyor emasligi maktab hayotidagi tengsizlik, formalizm, ijodkorlarga e'tibor bermaslik, faqat buyruqbozlik asosida ishlashga qaratilgan maktab hayotidagi kamchiliklar hali ham uchrab turadi. Ko'pchilik o'qituvchilarimiz ishonchli metodning o'rniga majburiy (buyruqbozlik) metodi bilan hamon ishlab kelishmoqda. Shu sababli dars va maktab hayotidagi bo'layotgan nuqsonlarni nazarda tutib, o'qituvchining nazariyasi bilan amaliyatiga ham izlanuvchan o'qituvchilarning tajribasi bilan ish faoliyatidagi yutuqlariga suyungan holda, darsdagi ta'lim-tarbiya ishidagi quyidagi ko'rinishlarni nazarda tutishdi va imkon qadar ularni o'qish jarayoniga kiritib borishimiz zarur.

Birinchidan, sinfda mustaqil (erkin) psixologik muhit, o'qituvchilarga hurmat-ehtirom, ishonch va ijodkarlik qobiliyatini rivojlantirishga sharoitlar yaratish;

Ikkinchidan, o'quv faoliyatining oliy motivini keltirib chiqarish, faqat o'quvchilarga o'quv materiallarining ahamiyatinigina bildirib qolmasdan, ularga o'qituvchi tomonidan taklif qilingan bilim olishning, ko'nikma metodi bilan usullariga ishonchni qaratish orqali;

Uchinchidan, o'quvchilarning bilim olishda belgili bir xulosaga ega bo'ladigan ishonch metod va usullar bilan tanishtirish (tushuncha, yodga, olgan bilimini amalda qo'llana olishga qaratilgan metod va usullar bilan tanishtirish deb tushuncha berish). Bu o'quvchilarning yaxshi o'qishiga, ta'lim-tarbiya olishda faollikka, ijodkorlikka olib boradigan foydali yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi deb qarash;

To'rtinchidan, o'quvchining amaliy dasturda olib borilishini, o'quvchilarning mustaham, yaxshi bilim olishiga, (bilim olish bu nazariy olgan bilimlarini hayotda qo'llay bilish degan so'z) bu esa o'quvchining o'z bilim va kuchiga ishonchni yanada ortirishga olib keladi;

Beshinchidan, barcha o'quvchilarning oliy darajada bilim olib, (Davlat ta'lim standarti asosida) uni yangi sharoitda qo'llay olish imkoniyatlariga sharoit yaratish. Darsda

o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini tug'ri xulosali tashkillashtira olish va ularning o'z mehnatining mevasidan qanoatlana oladigan sharoitlar yaratish;

Hozirgi paytda darsda o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ishonch, bir-biriga hurmat-ehtirom, mustaqil muhit, ijodkorlik yo'nalishida birgalikda ishlash muammolari ayniqsa muhim bo'lib turibdi. Maktab- umuman aytganda xalq maktabiga, milliy mazmuniga ega bo'ladi. Shuning bilan birgalikda oilaning ham davomi sanaladi. Shu tufayli, maktab zamon talabiga mos jamiyat tomonidan oldiga qo'ygan vazifani bajaruvchi sanaladi. Maktab va unda xizmat qiladigan o'qituvchilar jamiyatida asosiy figura bo'lib hisoblanadi. Ijodkor bo'lishi uchun o'qituvchi umumiy pedagogik, didaktik va metodik jihatdan ilmga ega bo'lishi bilan birga, uni amalga oshirish usullarini ham bilishlari lozim. Ushbu aytilgan fikr har bir o'qituvchining qalbiga to'la o'rnanib, o'rganuvchanlik yo'li orqaligina mavjud bilim va imkoniyatlarimizni, is'tedodimizni maktab oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishga harakat qilmog'imiz darkor.

Ta'lim jarayonida foydalanish uchun asrlar davomida foydalanilgan didktik materiallarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, Markaziy Osiyoda asosan mutafakkirlar, donishmandlar tomonidan yaratilgan ilmiy hamda badiiy asarlardan maktab va madrasalarda darslik sifatida foydalanilgan va mazkur manbalarda turli sohalaridagi bilimlar asosan integrastiyalashtirilgan holda bayon etilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, didktik materiallarni yaratishda yagona o'quv reja va dasturga asoslanilmagan.

1. Maktab va madrasalarda muayyan ta'lim tizimi va darsliklarning mavjud bo'lmaganligi, mutolaa usulining ustuvorligi o'quvchi hamda talabalar yozma savodxonligining sekin rivojlanishi, ular o'rganadigan bilimlarning davrlar o'tishi bilan eskirishiga olib kelgan. Ularning barchasi ta'lim tizimida muayyan ta'lim mazmuni va barqaror darsliklarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirgan.

2. Yevropa ta'lim tizimi yutuqlariga asoslangan Jadid maktablarida amal qilgan, millat ziyolilari tomonidan yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalari yoshlarda millatparvarlik, madaniy-ma'rifiy merosni ardoqlash, milliy urf-odat va an'anaga rioya etish, o'zbek tilini asrab-avaylash va rivojlantirish kabi fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qilgan.

3. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida foydalanilgan didaktik materiallarni mazmuni, xususiyatlari hamda foydalanish imkoniyatlariga ko'ra 2 guruhga ajratdik: darslik (darslik, o'quv qo'llanma va elektron darslik) hamda ikkilamchi didaktik materiallar (dars loyihasi, o'quv topshiriqlari tizimi, va o'yin topshiriqlar).

4. Boshlang'ich ta'lim jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallarni yaratish jarayoni umumdidaktik va xususiy tamoyillar asosida tayyorlanishi lozim bo'lib, ushbu tamoyillar asosida tayyorlangan didaktik materiallar o'quvchilar tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi.

5. Didaktik materiallar asosida o'quv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondoshuv ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini ta'minlash bilan birga fan asoslarini o'zlashtirish sifatini ham kafolatlaydi. Pedagogik texnologiya doirasida yangi o'quv materialini o'zlashtirishning boshlang'ich, algoritmik, ijodiy va evristik xarakterdagi darajalari belgilanadi.

6. Har bir mashg'ulot uchun tayyorlanayotgan didaktik materiallar individual xarakterda bo'lishi, ya'ni har bir mashg'ulot mazmuni, o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari hamda vaqt imkoniyatlarini inobatga olgan holda tayyorlash lozim.

7. Tajriba-sinov ishlari davomida boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda o'quvchilarning xilma-xil didaktik materiallarda foydalanishga bo'lgan qiziqishlari yuqori ekanligi aniqlandi.

8. Didaktik materiallardan foydalanishni takomillashtirish uchun o'quv qurollari bilan birgalikda bir necha marta foydalanishga mo'ljallangan didaktik materiallar tizimini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish o'qituvchilar uchun juda muhim yordam bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2003. -36 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni. Xalq so'zi. 1995. -29 dekabr, - B. 3 .
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T: 1997. 20-29 b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T: 1997. 31-61- b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1998. -684 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: 2008.
7. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish – bosh yo'limiz. // Ma'rifat, – Toshkent: 2002 (16.02.02y.). – B. 1– 2.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – 7– tom. –Toshkent: O'zbekiston.
9. Karimov I.A. Sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. // Xalq so'zi. – Toshkent: 2004 (8.12.2004y.) – B. 1– 2.
10. Karimov I. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti". Xalqaro konferentsiyada so'zlagan nutqi. – Toshkent, 2012 yil, 17 fevral
11. Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. – Toshkent: O'rta va Oliy maktab, 1960. – 150 b.
12. Abduraxmonova N., O'rinboeva L. Matematika. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: O'zbekiston. – 2012. 206 b.
13. Abduqodirov A.A. Umumta'lim maktablari uchun elektron darslik yaratishning nazariy asoslari // Pedagogika va axborot texnologiyalari yutuqlar va istiqbollari: Resp. ilmiy-amaliy konf. mat. O'zPFITI, - Toshkent, 2003. 30-35 b
14. Аденин В.А. Конструирование школьного учебника // Ж. Школьн. тех. - 2004.- № 2. – С. 134-143 .
15. Ahmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. Matematika. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Turon-iqbol. – 2012. 160 b.
16. Azimov I. va boshq. Biologiya. (Sitologiya va genetika asoslari) metodik qo'llanma: 9 sinf. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr., 2002. – 96 b.
17. Antonov A.F., Adilov Q.X. Umumiy ta'lim mazmunini tanlashning didaktik shartlari. Metodik tavsiyalar. – T.: 1994. - 24 b.

18. Bikbayeva N., Yangibayeva E., Girfanova K. Matematika. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi. – 2011. 208 b.
19. Burxonov S., Xudoyorov O'., Norqulova Q. Matematika. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. – 2012. 206 b.
20. Бейлинсон Г. Аппарат ориентировки школьных учебниках. В кн.: Проблемы учебника биологии в средней школе. - М.: 1975. –С. 45-55.
21. Беспалько В.П. Теория учебника: Дидактический аспект. - М.: Педагогика, 1988. –160 с.
22. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
23. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: МНТОР, 1996. – 54 с.
24. Дидактика средней школы. Некоторые проблемы современной дидактики. Под ред. М.Н.Скаткина –2-е изд. перераб.и доп. – М.: Просвещение, -1982. -319 с.
25. Зуев Д.Д. Некоторые проблемы структуры школьного учебника. // Проблемы школьного учебника. - М.: Просвещение, 1975. - №3. –С. 30-45.
26. Зуев Д. Д. Школьный учебник. – М.: Просвещение, 1983. 138-152 с.
27. Ibragimov X.I., Tayloqov N.I. Yangi avlod darsliklarini yaratishning didaktik tamoyillari. // Uzluksiz ta'lim jur. - 2004. – № 1. – B. 9-15.
28. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi. – 2011. 122-b.
29. Краевский В.В. Определение функций учебника как методологическая проблема дидактики. // Проб. школьн. учеб. Вып. 4. – М.; Просвещение, - 1976. - С. 13-36.
30. Лернер И.Я. Методологические проблемы дидактической теории построения учебника // Каким быть учебнику. – М.: ИТПИМО, 1993. – С. -7-26.
31. Mavlonova R. va b. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001. – 512 b.
32. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariev Sh., Dolimov Z. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis. – 2011. 240-b.
33. Maxmudov M. Ta'limni didaktik loyihalash printsiplari. // Pedagogik mahorat. jur. - 2001. - № 3. – B. 95- 99.
34. Maxmudov M. Ta'limni didaktik loyihalash (Risola). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. - 79 b.
35. Musayev P. O'quv fanlarining funkstional vazifasi va ularni integrastiyalash masalalari. // DTS asosidagi o'quv dasturlari: muammolar, izlanishlar, echimlar. Sem. mat. - T., 2002. – B. 32-38.

36. Rizayev Sh. Jadid dramasi. –Toshkent: Sharq, 1997. – 7-b.
37. Rixsiyeva M. Darsliklarda o‘quv materiallari uzviyligini ta’minlash muammolari.//«O‘zbekiston Respublikasida “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”ni hayotga joriy qilishning asosiy vazifalari»» Resp. ilmiy konf. mat. Toshkent, 2002. - B. 53-57.
38. Roziqov O., Ogaev S., Maxmudova M., Adizov B. Didaktika., - T.: Fan, 1997. - 256 b.
39. Sayidahmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. - T.: 1999. –55 b.
40. Sayidahmedov N.S. Pedagogikada yangicha fikrlash. –T.: Istiqbol, 2002. – 62 b.
41. Safarova R. va Rixsiyeva M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari darsliklarining yangi avlodiga qo‘yiladigan talablar. - T.: O‘zPFITI, 2001. - 14 b.
42. Safarova R. “O‘quv dasturlarining integrastiyasi va metodik yo‘nalishlari sohasida mavjud bo‘lgan nuqtai nazarlar” // DTS asosidagi o‘quv dasturlari: muammolar, izlanishlar, echimlar. Sem. mat. 2002. y. 4-5 fevral. – T., 2002. –B. 27-30.
43. Сосницкий К. Построение содержания учебника. // Проблемы школьного учебника. Вўп.3. –М.; Просвещение, 1978. - С. 118-129.
44. Taylaqov N. Uzluksiz ta’lim uchun informatikadan o‘quv adabiyotlari yangi avlodni yaratishning ilmiy-pedagogik asoslari. – Toshkent:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 16-b.
45. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –T.: Fan, 2005. - 205 b.
46. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. O‘quv jarayonini loyihalash va uning bosqichlari. // Uzluksiz ta’lim jur. – 2002. - №1. – B. 58-64.
47. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konstepstiyasi. - T.: Sharq, 2002. – 13 b.
48. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘zbekiston. – 2012. 222 b.
49. Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. // Ta’lim taraqqiyoti axborotnomasi. -T.: Sharq, 1999. - №3. – 399 b.
50. Farberman B.Ya. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - O‘zRFA . T.: Fan, 2000. - 127 b.
51. Формирование системного мышления в обучении. - М.: ЮНИТИ – Дана, 2002. – 344 с.
52. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi. -2012. 141 b.

53. Xayrullayev M. Buyuk siymolar, allomalar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti, 1995.(1-kitob).).
54. Харламов Ф. Педагогика в вопросах и ответах: Учеб.пособие. -М.: Гардарики, 2001. – 256 с.
55. Shodiyev D. va b. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari darsliklarini tekshirish va baholash mezonlari. - T.: OʻzPFITI, 2001. – 14 b.
56. Shodiyev D. Darslik yaratish metodologiyasi. - T.: OʻzPFITI, 1994. - 21 b.
57. Ergasheva G.S. Umumiy oʻrta taʼlimda oʻquv materiallarini strukturalashtirish (tarkiblashtirishning) didaktik asoslari. //Oʻzbekiston Respublikasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni hayotga joriy qilishning II-bosqichida pedagogika fanining vazifalari” ilmiy-amaliy konf. mat. - T.: OʻzPFITI, - B. 298-301.
58. Ergasheva G.S. Oʻquv materialini modellashtirish // J. Pedagogik mahorat. - 2002. - № 2. – B. 30-32.
59. Ergasheva G.S. Darsliklarda oʻquv materiallarini saralashning baʼzi jihatlari. // Uzluksiz taʼlim jurnali. - 2003. - № 4. – B. 3-15.
60. Ergasheva G.S. Oʻquv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashish. // Xalq taʼlimi jur. - 2004. - № 3. – B. 64-66.
61. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 2-t. - M.: Rus tili, 1981. – 715 b.
62. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. III-tom. –Toshkent: 2002. – 142-b.
63. Qosimova K., Fuzailov S., Neʼmatova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 2012. 128 b.
64. Quvondiqov E.O. Pedagogik sinergetika va uning istiqbollari // Pedagogik mahorat.– Toshkent: 2006. – № 1. – B. 14–19.
65. Gʻafforova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. Oʻqish kitobi. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. -2012. 127 b.
66. Gʻafforova T., Shodmonov E., Gʻulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. – 2012. 112 b.
67. Gʻafforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. Oʻqish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. – 2012. 176 b.
68. Gʻafforova T., Nurullayeva Sh. Boshlangʻich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar va didaktik oʻyinlar. Qarshi: Nasaf. – 2003.
69. Gʻafforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlangʻich sinflar uchun ona tili va oʻqishdan didaktik materiallar Toshkent: Ilm ziyo. – 2004.

70. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. - T.; O‘qituvchi, 1990 . 4-bet.

Internet saytlari

www.ziyonet.uz

www.lex.uz

www.pedagog.uz

I L O V A L A R

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun anketa savollari

Hurmatli o'qituvchi! Sizdan ushbu anketa savollariga javob berishingizni iltimos qilamiz. Sizning javoblaringiz faqat ilmiy tadqiqot maqsadida qo'llaniladi.

Yoshingiz

Ma'lumotingiz

Pedagogik stajingiz

1. Ta'lim jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallarga nimalar kiradi?

- ☐ darsliklar
- ☐ o'quv qo'llanmalari
- ☐ tarqatma materiallar
- ☐ ko'rgazmali qurollar
- ☐
- ☐

2. Siz faoliyatingiz davomida ularning qaysi biridan foydalanasiz?

- ☐ darsliklar
- ☐ o'quv qo'llanmalari
- ☐ tarqatma materiallar
- ☐ ko'rgazmali qurollar
- ☐
- ☐

3. Boshlang'ich ta'lim jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallar qanday talablarga javob berishi kerak?

- ☐ o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi;
- ☐ rang-barang bo'lishi;
- ☐ o'quvchilarni fikrlashga undashi;
- ☐
- ☐

4. Pedagogik jarayonda didaktik materiallarni tanlashda qanday talablarga rioya qilasiz?

- ☐ o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishiga;
- ☐ rang-barang bo'lishiga;
- ☐ o'quvchilarni fikrlashga undashiga;
- ☐

○

5. Quyidagi boshlang'ich sinf darsliklarini zamonaviyligi, dizayni va mazmuniga ko'ra 5 ballik shkala asosida baholab bering:

№	Darslik nomi	Dizayni	Mazmuni	Zamonaviyligi
1	Alifbe			
2	O'qish kitobi. 1-sinf			
3	O'qish kitobi. 2-sinf			
4	O'qish kitobi. 3-sinf			
5	O'qish kitobi. 4-sinf			
6	Ona tili. 1-sinf			
7	Ona tili. 2-sinf			
8	Ona tili. 3-sinf			
9	Ona tili. 4-sinf			
10	Matematika. 1-sinf			
11	Matematika. 2-sinf			
12	Matematika. 3-sinf			
13	Matematika. 4-sinf			

6. Boshlang'ich ta'lim jarayonida foydalanish uchun ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallarni qanday tayyorlaysiz?

- qo'ldan tayyorlayman;
- rassom yoki mutaxassislar mehnatidan foydalanaman;
- tayyorini sotib olaman;
- kutubxonadan tayyorini olaman.
-
-

7. Didaktik materiallarni takomillashtirish borasidagi takliflaringiz:

Javoblaringiz uchun rahmat!

**2-sinf o'quvchilari bilimlarni o'zlashtirish darajalarini
aniqlash yuzasidan test savollari**

1. «Shahlo» soʻzida nechta tovush va nechta harf bor? (Lotin alifbosida «sh» tovushi ikki harf orqali ifodalanadi)
 - A) 6 ta harf, 5 ta tovush.
 - B) 6 ta harf, 6 ta tovush
2. Matnni toʻldiring:
Men . . . ga bordim. U erda . . . ni koʻrdim. U menda yaxshi taassurot qoldirdi.
3. Qaysi gap toʻgʻri tuzilgan?
 - A) Biz chiqdik dalaga kecha.
 - B) Kecha biz dalaga chiqdik.
4. Qaysi soʻz talaffuzida undosh tovush tushib qoladi?
 - A) Hisob.
 - B) Toshkent.
5. Narsa va shaxsning belgisini bildirgan soʻzlar nima deyiladi?
 - A) Sifat.
 - B) Ot.
6. Qaysi qatordagi soʻzlar boʻgʻinga toʻgʻri ajratilgan?
 - A) Ba-ho-dir, Ravsh-an.
 - B) Ba-ho-dir, Rav-shan.
7. Matn nimalardan tuziladi?
 - A) Soʻzlardan.
 - B) Gaplardan.
8. Gap oxiriga tinish belgilarini qoʻying.
 - A) Oʻrtogʻingdan xabar oldingmi
 - B) Bahor naqadar goʻzal fasl
9. Kim? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar qatorini toping.
 - A) Olma, parta, ishchi.
 - B) Duradgor, ota, oʻquvchi.
10. Gap qanday maʼno bildiradi?
 - A) Gap tugallangan maʼno bildiradi.
 - B) Gap tugallanmagan maʼno bildiradi.

3-ilova**3-sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish darajalarini
aniqlash yuzasidan test savollari**

1. Unli tovushlar qaysi qatordagi so'zda ko'p qatnashgan?
A) mustaqil;
B) yigirma;
V) Shohimardon.
2. Qaysi qatordagi so'zlarning talaffuzida undosh tovushlar tushib qoladi?
A) Toshkent, maktab;
B) uzum, kitob;
V) Samarqand, Toshkent.

3. Soʻzlarni mos kataklarga joylashtiring:

Kuch, kuchli, ishchi, ishlamoq, ishchan.

Ot	Sifat	Son	Fe'l

4. . . . oʻzak, soʻz yasovchi qoʻshimcha va soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalardan tashkil topadi.

A) otlar;

B) gaplar;

V) soʻzlar.

5. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan gap boʻlaklarini toping.

A) kesim;

B) ega;

V) gap.

6. Gap boʻlaklarini jadvalga joylashtiring.

A) Oʻquvchilar maktabga shoshib ketmoqdalar.

B) Munavvar onasiga yordamlashdi.

Ega	Kesim	Ikkinchi darajali boʻlak

7. Berilgan soʻzlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

A) boʻldi, mustaqil, yurtimiz.

B) oʻstiradilar, oʻquvchilar, gullar, bogʻida, maktabning.

8. Nuqtalar oʻrniga mos soʻzlarni qoʻying.

Tozalik - . . . garovi. Shuning uchun . . . ni toza saqlaymiz. Bu bizga . . . boʻlishga yordam beradi.

9. Qaysi gap toʻgʻri yozilgan?

A) Bu yil yomgʻir serop boʻldi.

B) Bu yil yomgʻir serob boʻldi.

V) Bu yil yomg'ir serob bo'lti.

10. Quyidagi so'zlarni qatnashtirib hikoya tuzing.

Tong, bulbul, kitob, ona.

4-ilova

4-sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish darajalarini aniqlash yuzasidan test savollari

1. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'ying.

O'quvchi . . . ustoz . . . bilan maktab orqasidagi er . . . gul ekdilar.

2. Yasama so'zlar qatorini toping.

A) ishchi, oshxona, kitobxon

B) bog'ning, kitobsevar, olmaxon

V) olma, oshpaz, daftar

3. Tinish belgilarini qo'ying.

Anvar bugun maktabga kelmagan o'rtog'ini kech bo'lsa-da ko'rgani bordi.

4. Qo'shimchalar qaysi fe'l zamonlariga tegishli ekanligini yozib qo'ying.

Qo'shimchalar	Fe'l zamonlari
-gan; -gan edi; -di	
-moqchi; -adi.	
-yapti.	

5. So'zlarni jadvaldagi mos katakchalarga joylashtiring.

A) Maktab bizning ikkinchi uyimizdir.

B) Onam menga qiziqarli kitob va qalam sovg'a qildilar.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe'l	Bog'lovchi
----	-------	-----	--------	------	------------

6. Quyidagi soʻzlarni qatnashtirib, 4-5 gapdan iborat hikoya tuzing.

Yomgʻir, kitob, olma, kasal, koʻylak.

7. Kishilik olmoshlarini yozing.

B I R L I K		K O ʻ P L I K	
I shaxs		I shaxs	
II shaxs		II shaxs	
III shaxs		III shaxs	

8. Kelishik qoʻshimchalari qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A) –ning; -im; -dan.

B) –ning; -ni; -ga; -da; -dan.

V) –dan; -lar; -moqchi.

9. Soʻzlarni alifbo tartibida yozing.

Qaldirgʻoch, gʻaltak, varrak, arqon, olam, Vatan, ark, ona, qanot.

10. Soʻzlarning urgʻusini qoʻyib koʻchiring.

Choʻlda jazirama issiq boʻladi. Suv yoʻq. Odamlar kanal qazib, choʻlga suv keltirdilar. Insonning qoʻli gul.